



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO'MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI**

**«TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
VA KASBIY TA'LIM» FAKUL'TETI
«AXBOROT-TA'LIM TEXNOLOGIYALARI» KAFEDRASI**

**Kasbiy ta'lim yo`nalishi 620-10 guruh talabasi
Abdurayimov AZIZBEKning**

**“Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmali
qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan
foydalanish” mavzusidagi**

**5111018 – “Kasb ta'limi (informatika va axborot texnologiyalari)”
yo`nalishi bo'yicha:
Bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar:

I.Sobirov

Farg`ona – 2014 y.

Annotation

In the given thesis it is researched ample opportunities and usage of new technology by teachers in the conditions of educational process in colleges and other educational institutions in the form of visual aids on the basis of the modern computer and telecommunication networks. The thesis includes in itself of parts such as, introduction, analytical, main part and pedagogical, safety and technical security, the list of the used literatures and applications. In the prologue the society is told about importance and about a role of information technologies in the development. In an analytical part improvement of quality and efficiency of formation, and also a principle of visualization of educational process and didactic concepts of professional colleges is considered too.

The main part to final qualification operation shared on two parts. By preparation of teachers of the college to use a visualization principle. And the second a part is interpreted tasks and properties information and communication technologies in an education system.

The orally-demonstrative both scientifically-creative approach and characteristics of system of training are resulted in a pedagogical part of operation. Means, in the modern continuous education system of creation of conditions, dimples is professional-pedagogical skills, development of creative ability of the future experts.

Besides given operation had considered the following: the organization of operation and the security regulation, the inference, the list of the used literatures.

Mundarija

Annotatsiya.....	2
Kirish.....	6
I.Bob. Analitik qism. Kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirish	
1.1. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish usullari.....	9
1.2. Kasb hunar kollejlarda ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati.....	20
I- bobga xulosa.....	23
II.Bob Asosiy qism. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsiptan foydalanishning didaktik xususiyatlari va vazifalari	
2.1. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsiptan foydalanish.....	25
2.2. Ta'lim tizimida telekommunikatsion texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va vazifalari.....	35
II- bobga xulosa.....	43
III.Bob. Pedagogik qism. Kasb-hunar kollejlarda o'qitishga ko'rgazmali-ijodiy yondoshish usullari va o'qitishga texnologik yondashish	
3.1. O'qitishga og'zaki - ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy yondoshish va ularning solishtirma xarakteristikalar.....	46
3.2. Mashg'ulotlarni ko'razmali qurollar orqali didaktik konstruksiyalash usullari va o'qitishga texnologik yondashish.....	53
IV. Mehnat muhofazasi.....	60
Xulosa.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	71
Ilova.....	73

KIRISH

«Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi saviyasini jahon andozalari darajasiga etkazish, xalq xo'jaligida mutaxassisliklarga bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, pedagogik va zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir...»

I.A.Karimov.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi zamon uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, chuqur ilmiy, kasbiy pedagogik tayyorgarlikka erishishga imkon yaratilishini nazarda tutadi.

Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan Respublikamizda yangi iqtisodiy sharoitlar ro'yobga keldiki, bu xalq xo'jaligining barcha sohalarida qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Fan va texnika taraqqiyotining jadal rivojlanayotgani, komp'yuter texnikasining keng qo'llanilayotganligi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilimlar ko'lamining tobora oshib borayotganligi, ta'limni tubdan yaxshilanishi, fanlar bo'yicha milliy va mahalliy sharoitlarga mos keladigan hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradigan dastur va darsliklar, ta'limning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Ma'lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichi bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilardan yuksak darajadagi kasbiy mahoratni egallashlarini talab etadi. Ularni pedagogik faoliyatga ham nazariy, ham amaliy jihatdan tayyorlash ishida pedagogika ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutulariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy - amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, axborot -kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish optimallashtirishning kasbiy

ko'nikma va malakalari tizimi bo'lib, u asosan yosh avlodni maqsadga muvofi yo'naltirish, ularning ma'naviy e'tiqodini, dunyoqarashini, qobiliyatlarini ijtimoiy ehtiyoj nuqtai - nazardan har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ta'limni yanada takomillashtirish maqsadida Respublika hududida ta'limni umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari orqali amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunida milliy tajribalarni tahlil qilgan holda hamda jahonning ilg'or yutuqlarini e'tiborga olib oliy o'quv yurtlarida har tomonlama shaklangan va etuk mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Umuman olganda, axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishda juda katta tajriba, bilimlar manbai, tavsiyalar to'plangan bo'lib, bular o'qituvchilarga, bo'lg'usi pedagoglarga ma'lum tizim holida etib borishi, ular ijodiy imkoniyatlari rivojiga ta'sir etishi zarur.

Qabul qilingan xujjatlarda komp'yuterlashtirish va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash va maqsadli yo'nalashlari belgilangan. Bundan tashqari, o'quv yurtlarning moddiy - texnik va ilmiy - tadqiqot bazasini kengaytirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallashi uchun zamonaviy komp'yuter texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalariga, ayniqsa iqtisodiyotga keng joriy etish zarur.

Umumiy holda, bo'lg'usi mutaxassis pedagogik mahorat qirralarini mukammal bilishi, bu borada etakchi mohir o'qituvchilar pedagogik ish tajribalarini o'rganishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hukumati, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Respublikamizda oliy ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini rag'batlantirgan holda, uni yanada takomillashtirish, jahon miqyosida uning shon-shuhratini oshirish va respublikamiz fuqarolariga sifatli oliy ta'lim berish mazmunini va shaklini yaratishni hamon kun tartibida saqlab

turibdi. Jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'limga ham bevosita aloqador bo'lib, bizning oldimizda ulkan vazifalar turganligini ta'kidlash joiz bo'ladi, u ham bo'lsa, davlat ta'lim standartlari bo'yicha oliy va o'rta maxsus ta'limning yangi avlodini yaratishdir. Bu mas'uliyatli ishga endilikda shu sohada tajriba ortirgan, jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim jarayonini tahlil qilish ishlarida faol qatnashayotgan mutaxassislar, olimlar va yangi kuchlarni birlashtirgan ijodiy guruhlar hamda oliy ta'lim ishiga mas'ul shaxslarning hamkorligini tashkil etishdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Maktab pedagoglari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy maktab professor-o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o'zlashtirish, og'zaki - ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy yondoshuvlar, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuz'mina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalari. K.G.Markvardt, V.Guzeevlarning fikrlari, ta'limda og'zaki – ko'rgazmali yondashuv, I.P.Podlasiy, M.V.Klarin V.I.Orlovlarning ta'kidlari, ta'limga yondashuvning qiyosiy tavsifnomasi mavjud.

Tadqiqotning maqsadi: kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni didakik omillarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: kasb-hunar kolleji o'quvchilariga ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishning metodik asosini yaratish.

Tadqiqot predmeti: kasb-hunar kolleji o'quvchilariga ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishning yo'llari, shakli, metod va vositalarini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni nazariy jihatdan tahlil qilish.

2. Kasb hunar kollejlari ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirish haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish va malakalarini oshirish.

3. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsiptan foydalanishning pedagogik ekspertizadan o'tkazish hamda mavzu yuzasidan xulosa va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agarda:

- kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga erishilsa;

- kasb-hunar kollejlari o'qitishga ko'rgazmali-ijodiy yondoshish usullaridan foydalanib dars o'tilsa;

- kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda DTS asoslanilsa va seminarlar-treninglar tashkil qilinsa, fanlar bo'yicha ko'rgazmali qurollarning dars namunalari yaratilsa, kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimida ko'rgazmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik sistemasini yaratish imkoni paydo bo'ladi.

Tadqiqot metodlari:

- ❖ Tarixiy xronologik taxlili;
- ❖ Ta'limi xujjatlarini o'rganish;
- ❖ Pedagogik kuzatuv;
- ❖ So'rovnoma;
- ❖ Pedagogik tajriba-sinov.

Tadqiqotning metodologik asoslari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hukumati, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid me'yoriy xujjatlar, «Komp'terlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmon, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», kasb-hunar kollejlari ta'limi xujjatlari.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati:

1. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan o'qitish uslublari aniqlandi;
2. Kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirish asoslandi;
3. Kasb-hunar kollejlari o'quv mashg'ulotlarini ko'razmali qurollar orqali didaktik konstruksiyalash usullari o'rganib pedagogik ekspertiza qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

- kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish usullari nazariy taxlil qilindi;
- kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsipidan foydalanishning didaktik xususiyatlari va vazifalari o'rganildi;
- kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda KHK nizomi, DTSga asoslanilsa va seminarlar-treninglar tashkil qilishda, fanlar bo'yicha ko'razmali qurollarning dars namunalari yaratishda, o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirishda foydalansa bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: BMI 3 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa, mehnat muxofazasi, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I-Kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirish.

1.1-§. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish usullari.

Ko'rgazmalilik tushunchasi. Uning turlari va funktsiyalari Ya.Kamenskiy VII asrdayoq ko'rgazmolilikni shunday ta'riflaydi: xar bir narsani hissiyotlar bilan anglash, o'rganilayotgan ob'etni his-tuyg'ular orkali anglash, maket va modellarni o'quvchilar orqali kuzatish, o'qitish ko'rgazmaliligini avval aniq ob'ektni anglash deb tushunilgan, masalan: real predmet va hodisalar o'z boshlang'ich ko'rinishida mashinalar modellari, ko'rgazmali (tarqatma material, jadvallar, va ayrim chizmali dasturlar, o'quv kinofil'mlar. Zamonaviy didaktika shuni ta'kidlaydiki, ko'rgazmalilik tushunchasi bu nafaqat konkret vizual predmetlarga tayanish, balki modellarga ham model' - bu nima? Odatdagi ko'rgazmalilikdan farqi nimada? Model' - bu ob'ekt yoki ob'ektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan ob'ektning tashqi ko'rinishi xaqida tasavvur hosil qiluvchi natural predmetlar anglatadi. Model' esa faqat hodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur, o'rganilayotgan hodisa uchun izomorf.

O'rganish vositari ko'rgazmali bo'lishi uchun hodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalarini ko'rsatish (ya'ni model' o'rganilayotgan hodisaga izomorf bo'lishi kerak), modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorflik va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining teoriya tushunchalari shakllanishidagi o'rni Davido orqali ilmiy fikrlash asosi deb topildi. O'quv modellarini u ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflaydi. Modellashni Davidov ko'rgazmalilikni to'ldiruvchi didaktik printsip deydi.

Predmetning tashqi xossalari deb o'rganish mazmuni hisoblansa, tasvirent ko'rgazmalilik o'zini oqlaydi. Predmet aloqalari va qarashlilikgi o'qitilish mazmuni deb hisoblansa, u erda ko'rgazmalilik etarli darajada emas. Unda modellash printsin kuchga kiradi. Modellashni ko'rgazmalilikni tashkiliy

qilish deb hisoblasa bo'ladi, ya'ni printsipting mazmunini kengaytirishdir. Ko'rgazmalilik vositalari kengaytirish va ishlatish sohalari (tasavvurgina emas, balki tushuncha, bilimgina emas, balki ko'nikma hosil bo'ladi). Zamonaviy komp'yuter texnologiyalari yordamida nafaqat rangli tasvir modellarini barcha tomonlari ishga solindi, balki bu modellarni ha-rakati, dinamikasini tasavvur etish mumkin bo'ldi. Ko'rgazmalilik vositalari yangi funktsiyaga ega bo'lgan o'quvchilarning o'rganish qobiliyatini boshqarishdir. Ular yordamida o'quvchilar olgan bilimlari umumlashtiriladi va kerakli joyda ishlatiladi. O'qitishning tasviriy vositalari orqali samarali metodikaning talablaridan biri bu didaktik va tarbiyaviy qobiliyatlarni namoyishi etishidir.

Ko'rgazmalilik turlarini ishlatish og'zaki axborotni to'ldirib qolmay, balki axborot etkazuvchi xizmatini bajaradi, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Yangi komp'yuter axborot texnologiya o'qitilishi va ko'rgazmalilik uslubi. Darsliklarda hali ham insonni tasvir orqali o'qitilishi yuqori darajada emas. Tasvirli va shartli-chizmalı ko'rgazma vositalari o'quv dasturlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni o'rganish intellektual faoliyatida asosiy o'rin egallaydi. Nazariy dasturlarining ma'naviy to'liqligi va olgan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Tushunishi qiyin bo'lgan matn parchalari, tasvir orqali tushunchalarni anglash va tezlik bilan tasavvurni kengaytiradi, va o'qitish samarasini oshiradi. Quyidagi didaktik printsiplarga amal qilinmasa, mul'timediya programmlari samarasi pasayadi.

Didaktikadagi o'qitilish, ko'rgazmalilik printsiptini o'quv axborotini ko'rgazmali tasavvurining ishlatilishidir. Elektron dasturlari va KIT yordamida ko'rgazmalilik o'qitish qanday sifatga ega bo'ladi?

- Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari vizual axborot sifatini oshiradi. Mul'timediya texnologiyasi bu borada yaxshi samara beradi.
- Ko'rgazmali abstraktsiya yaratiladi. O'qitiladigan jarayon aniqlashsa, komp'yuter texnologiya ishlatilishi real ob'ektlar xossalari qayta

ko'rib chiqiladi, nazariy qoidalar uyg'unlashadi. Birincha qoida barcha orqali qabul qilingan bo'lsa, ikkinchisi batamom anglanmagan. Bu qoidaga asosan o'quv jarayonining deduktiv anglashga o'tiladi. Ko'rgazmalilik talablari elektron o'quv dasturlarida yuqori darajada ishlatilishi zarur virtual xatiylik targ'ib etishda eshitish, ko'rish, anglash qobiliyati rivojlanish paytida qonga ko'p hissiyot a'zolarimiz ishga tushsa, shunga texnik o'rganish jarayoni kengayadi.

Tasvirlar soni va turlari. Elektron dasturning maqsadi - o'quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki komp'yuter orqali tasvir uchun ko'rgazmalarni tanlash. Tasviriy material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi.

Bizningcha, o'quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi, qo'shimcha ko'rgazmali tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy bloklarining uyg'unlashishi va tartiblashishi uchun. Komp'yuter texnologiya elektron dasturga hamma axborotni sig'dirish maqsadi qo'yilmaydi. Bu o'quvchini matn parchasini o'rganishdan chalg'itadi.

Talabaga beqiyos ozodlik berish havfli. Rasmdan lug'atga, boshqa gipermatnga ko'chish maqsadga muvofiq emas. Lekin, uni ozodlikdan mahrum etish xam kerak emas. Ongli kelishuv zarur o'qitish usulidagi bir chiziqlik yoki modullik yaratilishi kerak.

Gipermatnda harakatli rasmlar ko'pligi, dinamikasi bir chiziqlik bilim olishni susaytiradi, bu animatsiya to'liq bilim olishga halaqit beradi.

Bir mavzuda nechta tasvir bo'lishi kerak?

Bu nazariy o'quv dasturining mazmuni va xarakteriga bog'lik.

Ko'rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar keraklimi?

Bir marta tasvir qo'rib, ko'p marta elektron matnni o'qigandan yaxshiroq.

Misol uchun siz yumuq ko'z bilan notanish xonaga kirib, yoningizdagidan xonani tasvirlashni so'raysiz, unga 3-5 sekund ichida ko'rgani ma'qul. Xonani tasvir vositasi orqali qanday tasavvur etsa bo'ladi? Tasvir soni va beti aniq belgilanmaydi, quyidagi faktorlari asoslanadi:

- O'quv matnini mazmuni va xarakteriga ko'ra;
- O'quv uslubiga ko'ra;
- O'quv muassasasiga ko'ra.

Ko'rgazmali vositalar asosida o'qitish tasnifi. Mazmun va xakteri bo'yicha tasnif 3 guruhga bo'linadi:

1. Tasvirli ko'rgazmalilikka:

- rasmlar reproduksiyasi;
- arxitektura va haykataroshlik fotoreproduksiyasi;
- o'quv matnlar uchun yaratilgan o'quv rasmlar;
- raem va applikatsiyalar;
- vidoeparchalar;
- audioparchalar;
- videofil'mlar kiradi.

2. Shartli-chizmali ko'rgazmalilikka:

- jadvallar;
- sxemalar;
- blok-sxemalar;
- diagrammalar;
- grafiklar;
- xaritalar;
- planshetlar kiradi.

3. Predmetli ko'rsatmalilikka:

- muzey eksponatlari;
- maketlar;
- modellar.

Axborotni kuz odiga keltirish deb anglash jarayoniga yoki ko'z, yoki quloq, yoki baravariga ikkalasi yoki hissiyotlarni ulashdir. O'quv dasturini anglash uning ko'z oldiga keltirishdan boshlanadi. Shuning uchun barcha sezgi organlari ishga tushadi, shu tufayli tez va oson o'quv matnini o'zlashtiriladi.

Tasviri material bo'lishi kam, u tushunarli va o'zaro bog'langan, aktual bo'lishi kerak. Bunda tasvir vositalaridan foydalanadi.

Yaxshi jihozlangan o'quv matni umumiy holatga ijobiy ta'sir etadi. Ranga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg'unlashadi, kuzatuvchanlik va sezgirlik oshadi, xotira tayerlanadi, fikrlash jarayoni engillashadi, o'quv materiali o'zlashtiriladi.

«Sun'iy faoliyat» jadvali.

Shartli-grafik ko'rgazmali vositalari matn o'zlatirilishini engillashtiradi.

Jadval bu eng oddiy chizma materialning tasviri, asosiy chizma elementlari bu chiziqlar va ustunlar.

Ustun va qatorlar soni turlichadir.

Jadval tuzish oson, ularning ishlatilishi oddiy.

Ekran betini egallaydigan jadval turli formatda, ekran qismini yoki bir necha ekran betini egallaydi. Chizma vositalar orqali jadvallarni jihozlash:

- ranglar politrasi;
- rasmlar;
- shrift to'plami;
- jadval tanlash;
- qator va ustunlar sonini tanlash;
- jadval harakati samarasini ta'minlash.

Ko'z oldi ko'rgazmalilikni bosma va elektron o'quv matnini jadvallar qamraydi.

Matnli va raqamli axborot jadval asosida o'zlashtiriladi.

Jadvalning yaratilishi asosini matn mazmunli matn parchasini asonlashtirish va ko'z oldi kurgazmalilikni yuqori qo'yish ikki va ko'proq manzilni taqqoslashini ta'minlash. Bir qator ob'ektlarni umumlashtirish ikki va ko'proq elementlarni taqqoslash va farqlash jadval tuzish asosida matnining aniq joyga ko'rgazmani tushintirishni kiritish, o'xshash va farqli tomonlarni topishdir.

Jadvallar funktsional o'rni bo'yicha 3 turga bo'linadi:

1. Tushuntirishli o'rganilayotgan materialni yig'iq holda beriladi va ongli eslash va o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Taqqoslash jadvalli shaklning tuzilishi guruhlash turiga kiradi. Turli elementlar solishtiriladi: tarixiy, iqtisod va siyosat ob'ektlari va h. solishtirish orqali umumiylik, o'ziga xoslikni aniqlaydi.

3. Umumlashtirish yoki mavzuviy-nazariy materialga xulosa chiqaradi, tushunchalarni shakllantiradi. Umumlashtirishda, hodisalarni asosiy tomonlari mantiqiy ketma-ketlikda anglanadi.

Jadvallar bilimlarni bir tizimga soladi, oldingi mavzuga qaytaradi, mavzu yoki boblarga xulosa chiqaradi. Ko'rgazmalilik materialni joylashtirishga xam bog'liq. Taqqoslash uchun elementlarni biri tagiga ikkinchisini joylashtirish kerak, qarama-qarshilikni aniqlashda esa yonma-yon. Matn o'rganilishi va o'zlashtirishida jadvallar ishlatilishi samarasi yuqori bo'ldi, qachonki boshqa chizma vositalar bilan joylashtirilsa.

Jadvallarning ishlab chiqishda kuyidagilarga e'tibor berish kerak:

- Ta'riflash uchun kamroq so'z ishlatilish yuqori, ostki va yondagi hoshiyalarga joy qoldirish ko'zni charchatadigan ranglar kamroq bo'lishi kerak. Matn parchasidagi jadval cho'ntakchalari to'lik mazmun va xossalari ga moe bo'lishi kerak.

Jadvallar turlari.

Tasvirni oddiy va samarali vositasi bu jadvallar. Ular yordamida asosiy mazmunni aniqlash, o'rganilayotgan materialni osonlashtirish va fikrni eslab qolish, tushuncha va qoidalarni umumlashtirish mumkin.

Dimamik:

Doirali jadvallar - asosiy chizma elementlaridan biri bu doira. Uslubiy qiymati shundaki, materialni kompozitsiyasini ososhlashtiradi, chegaralashtiradi va umumlashtiradi.

Sxema - materialning grafik ko'rinishi, hodisalarning ayrim xossalari shartli belgilar orqali beriladi, aloqa va muloqotlar esa qismlarni o'zaro joylashtirilishi va ikki tomonlama ko'rsatkichlar bilan beriladi.

Dinamik — animatsion - ob'ektning harakati samarasini belgilashdir, turli statik jadval tuzishga imkon beradi. Qulayligi shundaki, materialni qismlab berish, oz-ozdan, jadvalni o'zgartirish imkoni bor, bir elementni boshkasi bilan o'zgartirish mumkin. Xarakatli jadvallarni qulayligi o'rganish va mustahkamlashga yordam beradi.

O'kuv axborotini taqsimlash, chizma tasvir ob'ektlashni to'g'ri tanlash harakatning samarasiga olib keladi. Turli qismli uzatishlarni tarqatish imkoni komp'yuter texnologiyalar orqali bajariladi.

Blok-sxema. Tasvirning ishtirli-chizma turini ko'rib chiqamiz. Sxema bu materialni chizma tasviri hodisalar qismlari va xossalari shartli belgilar orqali beriladi, aloqa va muloqotlar esa qismlarni o'zaro o'rnatilishi va ikki tomonlama ko'rsatkichlar orqali.

Jadvallar kabi sxemalar turli formatda bo'ladi, ular ekran betini qismini egallaydi, butun betni yoki bir necha betli bo'ladi.

Chizma vositalar yordamida sxemani yana shunday jixozlasa bo'ladi:

- turli ranglar orqali;
- rasmlar orqali;
- shriftlar tanlash orqali;
- aniq sonli qismlar va aloqalar orqali;
- sxemaning harakatlanish samarasi orqali;

Shartli-chizma ko'rgazmalilikka nafaqat sxemalar, balki grafik, diagramma, aplikatsiyalar, sxemali rasmlar kiradi.

Ular xodisa, voqea, jarayonlarning aloqa va muloqotlarini aniqlashga ishlatiladi, matn qismini obrazli tasavvurini shakllantiradi. Matniqiy ketma-ketlik va ko'p ob'ektlarni tasvir orqali solishtirish hosil bo'ladi.

Sxemalar bir necha turlarga bo'linadi:

Tushuncha, jarayon va hodisalarni tarkibiy qismlarini ko'rsatuvchi mantiqiy qismlar mantiqiy ketma-ketligini aniqlaydi.

Boshqa tasvirlarni sxematik tasvir bilan taqqoslash real obraz yaratadi.

Sxemani aniq tilga oid material to'ldirishi mumkin, lekin hajmini chegaralash kerak, chunki sxema ortiqcha yuklanadi, bu esa sxemaning qiymatini yuqotadi.

Gigiena normasiga keltiruvchi sxemalar engillashadi, qachonki material zich o'rnatilsa va shartli belgilar ongli joylashsa. Ular fikr va diqqatni jamlaydi, mezonlarini anglatadi, lekin aniq xulosalar bermaydi, fikrlash faolligi talab qilnadi, mustaqil, abstrakt fikrlashga undaydi, quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

Tushuntiruvchi so'zlar kamroq ishlatilishi yuqori, pastki va joy qoldirish ranglar rangbarangligini yo'qotish.

Tarkibiy qismlar soni va aloqalar matn parchasi mazmuni va xarakteriga mos bo'lishi kerak.

Sxemalar turlari: Statik va harakatlidir.

Animatsiya (dinamik tasvir)

Elektron darelik bosma o'quv materialini barcha tomonlarini saqlash va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi. Dinamik tasvirga statik tasvirni ko'z oldiga keltirish. Animatsiya bu harakat samarasini joriy etish jarayonidir.

Animatsiya tezlikda uzatishni ta'minlaydi.

- matn axborotini qismlab beradi;
- tasvir qismlarini so'zsiz harakatiing jarayoni;
- rasm harakati (so'zsiz);
- tarixiy janglar so'zsiz harakatini;
- fizik va kimyoviy jarayonlar;
- texnologik jarayonlar texnik konstruksiyalash;
- tabiiy hodisalar jarayoni;
- siyosiy hodisalar jarayoni;
- sotsial hodisalar jarayoni;

Animatsiya - ob'ektlar harakati va hollarda so'zsiz harakatlarni cheksiz va amaliy sharoitlar yaratadi.

Animatsiya usullari. Tasviriy ko'rgazmalilikni joriy etish uchun turli usullar ishlatiladi. Uslubiy tomonidan olsak, tasvir eskizini jihozlash va yaratishga oid usullarda to'xtalamiz. Animatsiya samarasini qo'llashda bir necha usullar bor:

1. Ustma-ustlik usuli. Statik tasvirni tanlab, muallif uni bir tarkibiy qismga bo'ladi va ularni bir - biriga ustma-ust kelish tarkibini belgilaydi. Dinamik tasvir samarasi joriy etiladi. Bu ob'ekt xarakatlanmaydi, lekin yashaydi. Bunday tasvir yig'ik va obrazli tarzda qandaydir qatorni yoki hodisa ketma-ketligini ta'riflash uchun ishlatiladi. Nazariy materialni qismlab joriy etish usuli sekinlik bilan jadval tuzishda ishlatiladi. Umumlashtirish va o'quv materialni tizimlashda yordam beradi.

2. «Kama» usuli. Matn bilan to'ldirilgan jadval oldini yopiq, keyin sekinlik bilan ochiladi. Jadval uzra qora qog'oz harakati tasavvuri paydo bo'ladi, jadvalni qismlarini sekin-osta ochib beradi.

3. «Kenglikdagi harakat» usuli.

Ustma-ustlik usulidan farqi shundaki, qadamlar ketma-ketligini ta'riflaydi, tasvir uchun tanlangan ob'ekt ekran kenligida harakatlanadi. Ko'z oldi qatorini asosini rasmlar tashkil etadi, rasm reproduksiya o'quv rasmlari va videoqismlar. Animatsiya va ranglilik yaxshi ta'sir beradi. O'quvchi diqqatini jamlovchi rangli ekran kuzatish diapazonini chegaralaydi. Kadrlar o'zaro bog'liq, ketma-ketlikda beriladi, mustaqil va avtonom. Ayrim kadrlar imzosi yo'q, ularni ulash va qo'shish imkoniyati bor, har xil tarzda beriladi, bir tasvir orqali turli uslub qo'llanadi. Qismlarni tanlash imkoniyati nazariy o'quv materialni tanlash imkoniyati nazariy o'quv materialni tushuntirishda qulay. Masalan, 3 rasimli kadr berildi, bir abzats mazmunini tasvirlovchi. Bu abzatsni o'qishda ketma-ket 3 rasimli kadr chiqariladi. O'quv materialni o'rganish jarayonida tasvir sifatida animatsiya kadrlardan muammoli savollar uzatib, solishtirish jad-vallari tuziladi. Tasvirlar sharxlar bilan kuzatiladi. Bu diqqatni faqat tasvirga qaratadi. Animatsiyada sharxlovchi matn tasvirlar sifatida ishlatiladi, rasm reproduksiyalarida. Animatsiya vaziyatni so'zsiz

imkoniyatlarini beradi va ob'ektlar harakatini tasvirlaydi. O'rganilayotgan materialni yaxshi tushunish va eslab qolish, predmetlar hakida tushunchalar, bilim qobiliyatlarini jamlovchi tasviri material animatsiya elementlari va ovoz kuzatuvi yaxshi samara beradi.

Elektron darslik uchun tasvir tayyorlash.

Muallif tasviri material tanlaydi, statik va dinamik ob'ektlar ro'yxatini tuzadi, harakatli tasvirlar ishlanmasini uzatadi. Eskiz materialni olgach, mutaxassis keyingi ishlovni beradi. Eskiz shakllar shartli-chizma tasvirlarda qulay tarzda bajariladi. Kichik modelni ta'riflash va tuzish bu eskiz bajarishidir. Model g'oyasi shuki, tanlangan tasvirni faqat kerakli tomonini ochish, qo'yilgan masalani echish uchun zarur bo'lgani olinadi. Dinamik tasvir modellar uchun kichik ishlanma yozish kerak.

Algoritm-aniq dastur. Muammoni echish uchun har bir oralikq qadam aniqlanadi. Ishlanma yozish usuli algoritmdan samaraliroq.

Oddiy animatsiya. Tasvir uchun algoritm kifoya lekin, qiyin dinamik ob'ektlarni ta'riflash uchun ishlanma yozish kerak, nafaqat chizma tasvir yaratadi, balki qismlarni o'zaro bog'liqligi, monitor ekranida o'quv axborotini joylash, rang, ovoz, shriftlarni aniqlaydi.

O'quv matnlarda sxema va jadvallar ishlatilishi.

Hissiyotli va ko'z oldi tasvir ko'rgazmalilikda katta o'rin egallaydi. Materialni to'g'ri tasvirlash tushunish, onglash, yodlab olishni ta'minlaydi. Tasvirlar fikriy obraz yaratish, kerakli ma'lumotlarni eslab qolish va tushunishga yordam beradi.

Matnni o'qib turib, undagi predmetlarni tasvir orqali ko'rib, o'quvchi tez va oson matn qismini o'zlashtiradi, ongiga ko'rgan obrazlari singib boradi. Fikr, so'z va obraz birligi shundadir. Elektron darslik bosma o'quv matndan farqi shundaki, unda qiymatlash yoki aniq qismlash bor. Har bir qism aniq tasvir bilan ta'minlangan, savol va topshiriqlar oldindan o'ylab chiqiladi.

Endi misol keltiramiz.

Fan: Xorij davlatlarda konstitutsion huquq.

Muallif: Popova.

Mavzu: Xorij konstitutsiyasi.

Kichik mavzu: Konstitutsiyalar tasnifi va ular ichki tarkibi. Konstitutsiya qabul qilish tartibi.

Konstitutsiya turli asoslarda tasniflanadi.

1. Asosiy qonun ob'ektlashi tartibi bo'yicha Konstitutsiyalar 2 guruxga bo'linadi:

- Yozma konstitutsiyalar, aniq bir hujjat sifatida aniq dastur sifatida yozilgan.
- Yozma konstitutsiyaga:

A) preambula tantanali e'lon qilingan formula.

Normativ xarakterga ega emas.

B) asosiy matn bo'lim, bob, moddalarga bo'linadi.

B) yakuniy vaziyatlar, Konstitutsiya kuchga kirish tartibini o'rnatadi.

G) o'tish vaziyatlari, konstitutsiya normalarini kuchga kirish muddatlari.

D) qo'shimcha vaziyatlar, ayrim, asosiy qoidalaridan istisnolar

E) qo'shimcha hujjatlar

Ayrim vaqtlarda yozma Konstitutsiya bir necha hujjatlardan iborat. Yozma Konstitutsiya qoidalar, sud ijrosi va huquqiy marosimlardan tuziladi. Shunday hajmda huquqiy rejalashtiruvchi hujjatlar tuziladi. Lekin yozuvlar bir hujjatda emas, balki huquqiy manbalarda yoziladi.

Shunday qilib, yozilmagan Konstitutsiya ob'ektlash shakli noaniq. Misol: Angliya uning Konstitutsiyasi bir necha kismdan iborat.

1.2-§. Kasb hunar kollejlarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati.

Inson atrofidagi olamni uzining 5 ta sezgi (kuz, quloq, hid va ta'm bilish, paypaslash — ushlab kurish) a'zolari orqali idrok qiladi. Ma'lumotlarni idrok qilishda hammadan ham kuzlar asosiy rol' uynaydi. Agar inson bu sezgi a'zosiga boshtsa ega bulmay qolsa, u idrok qilish imkoniyatidan ancha cheklanishini tekshirish oson. Bundan kurinadiki, odamlar urtasidagi muloqotda asosan, u ishni tashkil etishda buni e'tiborga olish zarur.

Ma'lumot yoki o'quv material shunday taqdim etilishi kerakki, u vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin, bu ko'z bilan doimo nimanidir ko'rsatish kerakligini bildiradi.

Vizuallashtirish deb ma'lumot va o'quv mazmunini ko'pincha ko'rgazmali tasvirlash yordamida ko'rsatishni tushunamiz.

Vizuallashtirish usul bo'lgani kabi ko'rsatmali tasavvur vositasi ham hisoblanadi. Ko'rsatmali tasavvurning boshqa imkoniyatlari ham mavjud: model taqdimi, biror jarayon namoyishi, predmetlar bilan harakatli munosabatlar.

O'zbek halq maqolida aytilganidek, «Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal». Ko'rsatmalilik, tushunarlik va misol- namunalaridan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi, chunki bu usullarning mohiyati shuki, ta'lim beruvchi bilimlarni ta'lim oluvchiga imkon qadar real hayotga bog'langan tarzda berishi lozim.

Vizuallashtirishning qulayliklari:

- ko'p gapirishning hojati yo'q;
- aytilgan gaplarni to'ldiradi va adashmaslikka yordam beradi;
- ma'ruzalar mazmunini engillashtiradi;
- ma'lumotni tushunishni osonlashtiradi va esda caqylab qolishni yaxshilaydi;
- ta'lim oluvchilarning diqqat-e'tiborini o'quv mavzusiga jalb qiladi;
- motivatsiyani, ya'ni ta'lim oluvchilarning darsga qiziqishlarini oshiradi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

Vizuallashtirishning qulayliklari uning kamchiliklariga aylanishi ham mumkin, masalan, vizuallashtirishda harakatlar haddan tapqari ko'payib ketsa, unda mazmun emas, balki «shou» (tomosha) birinchi o'rinda chiqib qoladi. Shuning uchun har doim quyidagi savollar haqida o'ylab ko'rish lozim:

nima maqsadda biror narsani vizuallashtirish kerak? (maqsad);
kimlar xabardor bo'lishi kerak? (maqsad guruhining xususiyati);
nimalarni vizuallashtirish kerak? (mazmun);
qanday qilib vizuallashtirish kerak? (vosita va usullarni tavlash);
vizuallashtirish uchun qanday sharoitlar mavjud? (texnik sharoitlar, texnik vositalardan foydalanish);

Vizuallashtirish vositalaridan foydalanish vizuallashtirishning eng asosiy shartidir. Chunki bu vositalar ma'lumotni etkazib beradi yoki o'zi bu ma'lumotni beradi.

Vizuallashtirish turi va tarzida mavzularni turlicha yoritish yo'llarini farqlash mumkin:

Induktsiya usuli orqali o'tkazilgan nazariy darslarda alohida hodisadan xususiyatlar orqali umumiy qonuniyatlarga o'tiladi.

Deduktsiya usuli bilan o'tkaziladigan nazariy darsda umumiydan xususiylga o'tish tushuntiriladi, ya'ni umumiy mavzudan (masalan, qoida) «mantiqiy xulosa» orqali yakka hodisalarga o'tiladi.

Boshqa mantiqiy usullar analiz va sintez usullari hisoblanadi.

Analiz usuli-butun alohida qismlarga bo'linadi, bu borada tartibning muayyan tamoyillaridan foydalaniladi.

Sintez usulida bir necha «qismlar» bir - biriga qo'shilib, butun hosil bo'ladi.

Odatda bu ikkala usul birgalikda qo'llaniladi va vizuallashtirishning turli imkoniyatlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Vizuallashtirishning tanlangan vositalari quyidagilardir:

- ✓ bo'r;
- ✓ doska;
- ✓ flipchart;

- ✓ pinvand;
- ✓ proektor.

Yana shuni ham aytib o'tish lozimki, vizuallashtirishning tanlangan asoslarini qo'llash jarayonida «mukammal harakat modeli»ga, vizuallashtirish vositalariga, o'quv maqsadlari jihatidan vizuallashtirish vositalarining funktsiyasi va turlariga ahamiyat bermoq zarur.

I - BOB XULOSA.

Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy komp'yuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarning joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa, pedagoglarning o'z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartiradi.

Zamonaviy o'qituvchi–kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalari, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir. Zamonaviy o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida dars mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o'quv materiali shunday taqdim etilishi kerakki, u talabanning vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin.

Zero o'qituvchi-ta'lim islohatining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan komp'yuterlardan foydalanish yordam beradi. Darsda komp'yuterdan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi. Axborot kommunikatsiya texnologiya (AKT) lari imkoniyatlari orqali talabalarga juda ko'p ma'lumotlarni olish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlarini AKT lar yordamida tashkil etishda fanga tegishli har bir mavzu bo'yicha fan o'qituvchisi tomonidan alohida dars ishlanmasi (stsenariyasi) ishlab chiqilishi lozim. Ishlanma asosida o'qituvchi tomonidan rejadagi barcha mavzularga oid bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy, amaliy-seminar mashg'ulotlariga tegishli topshiriqlar to'plamini elektron taqdimot shakli

tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproektorlar orqali o'quvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Taqdimotda qo'shimcha adabiyotlardagi rasmlarni, aniq jarayonlarni aks ettiruvchi tasvirlar, tarmoqdagi ma'lumotlardan katta elektron ekranda ko'rsatib tushunchalar berilsa, axborot ta'lim resurs portallaridan foydalanilsa, o'quvchilarning bilim va malakalari yanada boyitiladi, shuningdek darsga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

II-Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsiptidan foydalanishning didaktik xususiyatlari va vazifalari.

2.1-§. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsiptidan foydalanish

O'qituvchilar o'quvchilarga o'quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim printsiplaridan biri ko'rgazmalilikdan foydalanadilar.

O'qitishning ko'rgazmalilik bo'lishiga sabab insonning fikrlash xususiyatidir. Bu xususiyat asosan aniqdan abstraktga tomon rivojlanadi. Tushunchalar va obstrakt qonun-qoidalar aniq kuzatishlar natijalariga asoslansa xamda ular bilan mustaxkamlansa, ancha oson va tez shakllanadi. Kishilarda tafakkurning rivojlanishi ularning yoshiga, xayot va ish tajribasiga va boshkalarga boglik. Ammo bizning tafakkurimiz rivojlanishning kaysi boskichida bulmasin xamda biz kanchalik murakkab masalalarni o'rganmaylik, anik faktlar va timsollardan ajralib kolmasligimiz kerak.

Ko'rgazmalilik printsipti o'qituvchining xilma xil o'quv qo'llanmalari va o'qitishning audiovizual (eshitish, kurish) texnika vositalaridan foydalanishda ularning pedagogika jixatidan ma'kul tarzda yasalishida aks etadi.

Ko'rsatma qo'llanmalar – o'quvchilarni o'rganiladigan ob'ektlar, xodisalar, jarayonlar tugrisida yakkol tasavvurlar xosil qilish metodida o'qitish maksadida ishlatiladigan vositalar. Uzashtiriladigan bilimlar xarakteriga, o'quvchilarda mavjud bo'lgan tasavvur, tushuncha, xayot va ish tajribasiga, darsning anik vazifalariga karab ko'rsatma qo'llanmalar o'qitishda xar xil rolni bajaradi. Ular bilimlar manbai sifatida, shuningdek o'qituvchi suzlab berish, tushuntirish, suxbat vaqtida foydalanadigan rasm sifatida xizmat qilish mumkin. Kupincha, bu ikkala vazifa kompleks tarzda kelishi mumkin.

Ob'ekt, xodisa va jarayonlarni kuzatib o'rganish pedagogika nuktai nazaridan ideal xisoblanadi. Ammo o'rganilishi kerak bo'lganlarning ba'zilaridangina darsda foydalanish mumkin va ma'kul. SHu sababli, o'quv

jarayonida tasviriy ko'rsatma qo'llanmalardan keng foydalaniladi. Ulardan quyidagi xollarda foydalaniladi:

-  o'rganiladigan ob'ektning asli juda katta yoki juda kichik bo'lganda;
-  o'rganiladigan ob'ekt yoki xodisalarning aslini bevosita kuzatish mumkin bulmaganda;
-  tushunchani grafik tarzda tasvirlash talab etilganda;
-  murakkab ob'ektlarni oddiylashtirish yoki ishlash jarayonini ko'rsatish zarur bo'lganda.

O'quvchilarga yangi materialni bayon etishda ko'rsatma qo'llanmalardan tugri va uz vaqtida foydalanish katta ahamiyatga ega. Pedagogika fani va ilgor tajriba darsda ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilishga oid metodik talablar ishlab chikdi, bu talablarga rioya qilish ularning didaktik kimmatini oshiradi.

Avvalo shuni esda tutish zarurki, ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish – maksad bulmay, balki vositadir. Qo'llanmani ko'rsatish emas, balki u bilan ishlash kerak.

O'rganilayotgan materialning mazmuni va darsga ajratilgan vaqt taqozo etgan xollardagina ko'rsatma qo'llanmani namoyish qilish tavsiya etiladi. Darsda namoyish kilinadigan qo'llanmalar soni o'quvchilar va o'quv materialini sifatli uzlashtirishi uchun optimal bo'lishi lozim; darsda qo'llanmalardan xaddan tashkari kup foydalanish yaramaydi.

Namoyish kilinayotganlarini idrok etish jarayonida o'quvchilar sezgi organlarining kurish, eshitish, sezish, zarur xollarda esa tam bilish va xid bilish organlarining kupini jalb etish kerak. O'qituvchi suzi bilan ko'rgazmalilikning tugri kushib olib borilishi katta ahamiyatga ega. Ko'rsatma qo'llanmalarni idrok etishning asosi birinchi signal sistemadir, ammo ikkinchi signal sistema uning signallariga tartibga soluvchi ta'sir etadi. Xar kanday ko'rsatma qo'llanmalar namoyish kilinganda xamma vaqt izox berib turiladi. Ana shu izox o'quvchining e'tiborini qo'llanmadagi asosiy va muhim tomonlarga karatishga, kuzatilayotgan mul ob'ekt yoki xodisalardan ularning moxiyatini tashkil etuvchilarni ajratib olishga yordam beradi.

O'qitishning texnika vositalari deganda, o'quvchilarning bilim, o'quv xamda malakalarni uzlashtirishini osonlashtirish va uning samaradorligini oshirish xamda o'qituvchining o'quvchilarga bilim, o'quv va malakalar berish, ularni mustaxkamlash xamda tekshirib kurish borasidagi mexnatni engillashtirish uchun foydalaniladigan mexpnikaviy kurilmalar jamlammasi tushuniladi.

O'qitishning texnika vositalari jumlasiga axborot berishda foydalaniladigan texnika (kinoproektor va diaproektorlar, epidiaskop, fil'moskop, magnitofon xamda televizion kurilmalar va shu kabilar)gina emas, balki tegishli texnika bilan birga foydalaniladigan uziga xos axborot eltuvchilarning uzi (kinofil'mlar, diafil'mlar, diapozitivlar, dasturlashtirilgan topshiriklar tushirilgan teshik-teshik kartalar tuplami va shu kabilar) xam kiradi.

O'qitishning texnika vositalarining imkoniyatlari, metodlari va ishlatilishi usullari sinchiklab o'rganilgandagina o'quv jarayonida ulardan samarali foydalanish mumkin buladi. Xar bir o'qituvchi bu vositalardan foydalanishni bilishi, bu soxada tegishli bilim, o'quv va malakalarga ega bo'lishi kerak. Bilim yurtida o'qitishning texnika vositalaridan pedagogika jixatidan tugri foydalanish uchun tegishli sharoit yaratilishi zarur.

Ba'zi chet el pedagoglari o'quv jarayonida o'qitishning texnika vositalaridan keng kulamda foydalanish o'qituvchining mashina va uni boshkaruvchi muxandis bilan almashtirilishiga olib boradi, deb xisoblaydilar. Bunda o'qituvchi tashkilotchi rolini bajaradi, o'qitish vazifasi esa texnika vositalariga yuklanadi. Ammo o'qitish jarayonida fakat bilim berilibgina kolmay, o'qituvchi shaxsining murakkab ta'siri amalga oshiriladi xamki, buning natijasida o'quvchining dunyokarashi, xulk – atvor normalari shakllanadi, shaxsning kamol topishi sodir buladi. Bunga esa o'qituvchining ishtirokisiz erishib bulmaydi: uning axlokiy printsiplari chukur bilimlar xamda keng saviya bilan birgalikda xar gal takrorlanmaydigan intellektual alokaning shunday sharoitini yaratadiki, bunday sharoitsiz okibat natijada o'qitish va tarbiyalashda muvaffakiyat kozonish mumkin bulmaydi.

Darslarda yangi materialni bayon etishda o'qituvchi guyo eshittirib fikrlaydi, bunda u o'quvchilarga bilim beribgina kolmasdan, ularga mantikan fikrlash, fan

muammolarini xal qilishga ijodiy yondoshish o'quvlarini singdiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun bilimlar manbai va o'quv jarayonini raxbarigina emas, balki taklid qilish uchun namuna xamdir. O'qituvchini o'qitishning texnika vositalari bilan almashtirish o'quv jarayonida juda muhim narsani – o'quvchiga pedagog shaxsning ta'sirini chikarib tashlaydi, bu esa o'quv jarayonini juda kambagallashtirib yuboradi. Barcha texnika vositalarining, shu jumladan, o'qitish mashinalarining xam imkoniyatlari cheklangan – ular fakat o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini oshiradigan kuroldir.

Kasb – hunar maktablarida yuqori malakali usta va o'qituvchilar, boy texnikaviy imkoniyatlar, o'quvchilarning texnikaviy ijodiyoti keng rivojlanganligi tufayli o'quv xonalarini o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlashga, bu vositalarni bilim yurtlarida tayyorlashga, sanoatda ishlab chikarilgan texnika vositalarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmokda. Xonalarni o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlash ishida kuyidagi asosiy texnikaviy-pedagogik talablarga amal qilish kerak:

1. O'quv kabinetlarini o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlashda o'quv jarayonida ulardan kompleks tarzda foydalanishini xisobga olishi zarur.
2. O'quv xonasining istagan joyida kurish va eshitish uchun yaxshi sharoit ta'minlash lozim.
3. O'quv xonalarida uktitshning texnika vositalari ishlatilganda shovkin manbalarini yukotish kerak.
4. Barcha texnikaviy kurilmalar puxta va buzilmay ishlashi darkor.
5. Texnika vositalarining tuzilishi va ishlatilishi oddiy bo'lishi kerak.
6. O'qitishning barcha universal va maxsus texnika vositalaridan birgalikda okilona foydalanish lozim.
7. Ishlatilishi iktisodiy jixatdan maksadga muvofik bo'lishi zarur.

O'quv kinosi – o'qitishning eng kup tarkalgan texnika vositasi bulib, ob'ekt xamda xodisalarni xarakatda va rivojlanishda namoyish qilishga, materialni tekshirish va umumlashtirishga, shuningdek, anik idrok etishdan abstrakt idrok etishga utishga imkon beradi. O'quv fil'midan o'qituvchi o'quv materialini bayon

etishida illyustratsiya sifatida, shuningdek, o'quvchilar uni mutakil o'rganishi uchun foydalanishi mumkin.

Fil'm bilan ishlashning sunggi boskichida o'quvchilar savollar berishiga imkoniyat yaratish kerak. Javob kaytarishga fil'm materialni yaxshi bilib olgan o'quvchilarni jalb etish lozim.

Diafil'm va diapozitivlar, o'quv kinosi kabi, ko'rgazmalilik vositasi xamda o'quvchilar bilimlarining dastlabki manbai bo'lishi mumkin. kupincha diafil'mdan ko'rgazmalilik vositasi sifatida foydalaniladi, bu xolda yassi ko'rsatma qo'llanmalarga kanday talablar kuyilsa, diafil'mlarga xam shunday talablar kuyiladi. Diafil'm va diapozitivlarga kuyiladigan uziga xos talablardan kuyidagilarni ko'rsatib utish kerakki, kasb-hunar maktablarida ularni tayyorlashda bu talablarni xisobga olish zarur.:

diafil'm va diapozitivlarning mazmuni, avvalo, tasvirlash yul bilan berilishi kerak;

subtitrlar (bayonlar, tushuntirish yozuvlari) o'quvchilar kuzini charchatmasligi lozim;

rangli diafil'mlardan rang didaktik masalalarni xal qilishga yordam bera olgan takdirdagina foydalanish darkor; kora ok tasvirdagi diapozitivlar seriyalarini komlektlashda ularga rangli diapozitivlar kiritgan ma'kul.

O'quvchilarga fandan bilim berishda o'qituvchi foydalanadigan pedogogik vositalar xazinasida kitob muhim urin tutadi. Umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganishga tatbikan olganda kitob- asosiy darslik yoki o'quv qo'llanmasi, kushimcha adabiyot, spravochniklar, GOST jadvallari, xar xil texnikaviy xujjatlar, maxsus jurnallar, ilmiy-texnikaviy axborot organlari xamda xizmatlarning nashrlari, ba'zi xollarda esa ilmiy- ommabop adabiyotdir. O'quvchilar kitobdan o'qituvchi darsda bayon etgan o'quv matnriallarini mustaxkamlaydilar va takrorlaydilar. Kitobda sinf va uyda echish uchun masalalar, javob berilishi lozim bo'lgan sinov savollari keltiriladi, tekstga oid rasmlar, mazmunini uzlashtirib olish zarur bo'lgan jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar beriladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirigi buyicha kitobdan o'quv materialining muayyan kismini

mustakil o'rganadilar. Ammo kitobning o'quvchi, bulajak ishchi xayotidagi roli shu bilangina cheklanib kolmaydi. Ilmiy-texnika tarakkiyoti asrida, ya'ni ishlab chikarish texnikasi va texnologiyasi takomillashib borayotgan bir davrda malakali ishchi ilmiy-texnika adabiyotidan foydalanib, uz bilimlarini tuldirib borishi, barcha yangi, ilgor narsalarni bilib olishi zarur buladi. shu sababli o'quvchida kitob bilan ishlay olish malakasi xosil qilish umumpedogogika muammosining- shaxs mustakilligini rivojlantirishning bir kismi xisoblanadi.

Yuqorida aytib utilganidek, o'quvchilarning kitob bilan ishlashi, og'zaki bayon va suxbat bilan bir katorda, yangi o'quv materialini bildirish metodlaridan biridir. Shu munosabat bilan, dars vaqtida og'zaki bayon va kitob bilan ishlash orasidagi nisbatni aniklash muhimdir. Bu metodlar kuyidagicha kushib olib borilishi mumkin: o'qituvchi butun o'quv materialini bayon etadi- o'quvchilar uni kitobdan takrorlaydilar va tushinib oladilar; o'qituvchi fakat asosiy masalalarni bayon etadi- o'quvchilar dasturda kuzda tutilgan kolgan materialni mustakil o'rganadilar; o'qituvchi o'quv materialini mazmuniga mukaddima va uni o'rganish metodikasini beradi- o'quvchilar o'qituvchi raxbarligida, belgilangan reja asosida mustakil ishlaydilar; o'qituvchi ishni tashkil etadi va yunalish beradi- o'quvchilar kuzda tutilgan butun topshiriqlarni mustakil bajaradilar.

O'qituvchi butun o'quv materialini bayon etadigan darslarni bu material mu'lako yangi, o'quvchilarning bilimi va amaliy tajribasi kam yoki o'quv materialining mazmuni kiyin bo'lgan xollarda utkazgan ma'kul.

Og'zaki bayonni o'quvchilarning kitob bilan ishlashiga kushib olib borishning ikkinchi varianti, ya'ni o'qituvchi fakat asosiy masalalarni tushintiradigan varianti, o'rganiladigan material nazariy jixatdan asoslashni talab kiladigan va o'quvchilar bu materialni mustakil o'rganishga xali tayyor bulmagan xollarda qo'llaniladi.

O'qituvchi materialning mazmuniga mukaddima va uni mustakil o'rganish metodikasigina beradigan darslar o'rganiladigan material o'quvchilarning bundan oldingi bilmlariga tayanadigan, ayrim topshiriqlarga oson ajraladigan va kabinetda zarur barcha o'quv qo'llanmalari bo'lgan xollarda utkaziladi.

O'quvchilar yangi materialni mutlak mustakil ravishda kitobdan o'rganadigan darslar o'rganiladigan masalalar o'quvchilarning avvalgi bilimi va amaliy tajribasi bilan uzviy bog'lik bo'lgan, yangi tushunchalar ilgari o'rganilgan materialdan kelib chikadigan xollardagina qo'llaniladi.

Tajriba ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining o'quv materialini og'zaki bayon etishini o'quvchilarning kitob bilan mustakil ishlashiga kushib olib borish ayrim-ayrim metodda o'qitishga karaganda o'quvchilarning asosiy masalalarni uzlashtirishini urta xisobda 10-15 %, ma'noviy faktik aniklikni esa bundan xam kup oshirishga imkon beradi

O'quvchilarning bilimlari bevosita kitobdan uzlashtirishiga oid mustakil ishlari darsda xam, uyda xam utkaziladi. Tabiiyki, o'quvchilarning yangi bilimlar uzlashtirish uchun kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil etishda, avvalo, o'quvchilarda ishning bu turiga oldindan tayyorgarlik bor-yukligi xisobga olinadi. O'quvchilarda muayyan bilim zapasi, kitob bilan ishlash o'quvi bo'lishi kerak. SHuning uchun materialni kitobdan mustakil o'rganishni o'qitishning ancha keyingi boskichlariga kuyish lozim.

Mustakil o'rganish uchun, dastavval, nisbatan oddiy, o'qituvchining maxsus tushuntirishini talab etmaydigan materialni tanlash, o'quvchilarda tajriba tuplangan sari materialni xam sekin-asta murakkablashtirib borish zarur. O'quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlashini faqat o'qish-tushunish-esda koldirish maqsadida emas, balki muayyan o'quv masalalarini xal qilish uchun zarur bo'lgan materialni topish, kuyilgan savollarga javob kaytarish maksadida xam tashkil etish kerak. Bu xolda o'quvchilar kitob bilan ishlashning ma'nosini yaqqol tushunadilar va yodlab olishga intilmaydilar.

O'quvchilarning kitob bilan ishlash borasida urta maktabda orttirgan o'quvlarini, boshka o'quvlari kabi, shakllantirishda davom etish zarur.

O'quv materialini bayon etishda o'quvchilarning ma'nosiga etishi va undan asosiy fikrlarni ajratib ola bilishi kerak. Kitob bilan ishlashga urgatishining dastlabki paytlarida o'qituvchi bir necha asosiy savol kuyadi, bu savollarning javobini o'quvchilar kitobdan topadilar. Vaqt utishi bilan o'quvchilar ukilgan

materialdan asosiy joylarini mustakil aniklaydilar. Buning uchun o'quvchilarni, avvalo, tekstni tugri ukishga urgatish, ularning etiborini shoshilmay, yaxshi uylab ukish, xar bir paragraf yoki bulimdan keyin kichikrok tanaffus qilish, tekstga ilova kilingan chizma, rasm, grafik va sxemalarni taxlil qilish zarurligiga qaratish lozim. Kitobdagi qiyin, tushunilmaydigan joylarni takror o'qib chiqish, zarur bo'lgan xollarda, takrorlash vaqtida ularga qaytish uchun, daftarga belgilab olish kerak. O'quvchilarni kitobni qo'lga kalam olgan xolda o'qishga, o'qish jarayonida asosiy konun koidalarni daftarga yozib kuyishga, zarur joylarini kuchirib olishga odatlantirish muhim axamiyatga ega.

O'qilganlardan asosiy fikrlarni ajratib olishga uning rejasini tuzish yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilardan darsda xam, uyda xam kitob bilan mustaqil ishlashda reja tuzib olishni talab qilish va bu rejani tekshirib turish kerak. Reja tuzish uchun topshiriq olgan o'quvchi tekstni ukir ekan, darxol asosiy fikrlarni belgilab oladi, ularni bir-biriga mantikan boglaydi; vaqt utishi bilan bu xol odatga aylanadi. O'quvchilarni o'rganilayotgan xodisalar, jarayonlar orasidagi uxshashlik va fark alomatlarini topishga, mashina, mexanizm, asbob xamda apparatlarning tuzilish printspini tushinishga, o'rganilgan konuniyatlar asosida jarayonlarning sababini tushintirishga urgatish zarur.

Kitob bilan ishlash jarayonida o'quvchilar spravochnik adabiyotdan (spravochniklar, texnikaviy talablar, standartlar va shu kabilardan) ma'lumotlarni mustakil topishga va ulardan foydalanishga o'rganishlari kerak, bu esa malakali ishchi uchun juda muhimdir. Spravochnik adabiyot bilan ishlashga urgatish o'quv ishining boshka turlari bilan uzviy boglab olib borilishi darkor. O'quvchilar spravochnik adabiyotdan muayyan o'quv va ishlab chikarish masalalarini xal qilishda foydalanaganligi sababli spravka materiali bilan ishlashga urgatish xam shunday tashkil etilishi kerakki, o'qituvchi tanlagan yoki tuzgan masalalar o'quvchilarni masalalarni echish uchun barcha zarur ma'lumotlar etishmaydigan va spravochnik adabiyotga extiyoj tugiladigan sharoitga kuyadigan bulsin.

Darslar spravochnik adabiyotdan foydalanishda o'quvchilarga u bilan ishlashning ratsional usullarini: bunda rejasidan tugri foydalanish, kerakli jadval,

grafik, formulani tez kidirib topish, masalani echish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni yordamchi daftarga yozi' olish, tez-tez foydalaniladigan betlarga qog'oz qo'yish yo'llarini va shu kabilarni o'rgatish zarur. Bu maqsadda dastlabki paytlarda maxsus mashklar o'tkazish tavsiya qilinadi. O'qituvchi darsga zarur spravochniklardan yetarli miqdorda olib kelishi, xar bir kulay xolda o'quvchilarning bu spravochniklardan foydalanishiga imkoniyat yaratib berishi kerak.

O'quvchilarning kitob bilan mustakil ishlashini tashkil etishda ularni rasm, sxema, grafik va boshka ilyustratsiyasialardan foydalanishga, ularda mavjud bo'lgan ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni olishga urgatish xam muhim.

O'quvchilar tekstni ukib chiqish jarayonida xam ilyustratsiyalar bilan mustakil ishlashlari mumkin. Kitobdagi rasm, sxema, grafik bilan foydalirok ishlashi uchun o'quvchilarga maxsus topshiriklar berish va kitob bilan ishlash tugagandan keyin bu topshiriklarning kandy bajarilganligini tekshirib kurish lozim.

O'quvchilarni kitobning ilyustrativ materialidan foydalanishga o'rgatishning samaradorlig o'qituvchi tushintirish vaqtda xuddi shunday sxema, jadval va grafiklardan foydalangan xollardagina ortadi. Bunda o'quvchilar tushintirishning borishini bevosita kitobdagi rasmga, sxemaga, grafikka karab kuzatish imkoniyatiga ega buladilar. O'qitishning bunday usulidan kabinetda epidiaskop bo'lgan takdirdagina foydalanish mumkin, chunki o'qituvchi kitobdagi ilyustratsiyani ana shu epidiaskop yordamida ekranga tushiradi.

Darslikda yoki o'quv qo'llanmasida kasbni egallash uchun o'quvchi bilishi kerak bo'lgan asosiy materialgina bayon etilgan buladi. bu material eng zarur minimumdir. Malakali ishchi umuman texnika soxasida va uz kasbi soxasida kulga kiritilgan eng yangi yutuqlardan xabarjor bo'lishi kerak. SHuning uchun o'quvchilarga kushimcha adabiyotni o'rganishga oid topshiriklar berish, sinfda va uy topshirigi tarzida maxsus jurnallardan kuchi etadigan makolalar ukishni, ilmiy-texnikaviy axborot materiallarin o'rganishni tashkil etish, o'quvchilarda texnika

adabiyotiga kizikish uygshotish, ularda shunday adabiyot bilan ishlash malakasi xosil qilish zarur.

O'quvchilarda texnika adabiyoti o'qishga qiziqish xosil qilishning muhim vositasi ularning o'rganilayotgan materialning ayrim masalalari yuzasidan kichikrok maruzalar tayyorlashidir. Bunday muruzalar dastavval tayyorgarligi yuqorirok o'quvchilarga topshiriladi, sungra bu ishga kolgan o'quvchilar xam jalb etiladi. O'quvchi o'qituvchi raxbarligida maruza tayyorlar ekan, maxsus jurnal xamda kitoblar ukiydi, ko'rsatma qo'llanmalar tayyorlaydi, tajribalar utkazadi va xokazo. Bularning xammasi o'quvchilar bilimlarini chukurlashtiradi va ularda texnika adabiyoti o'qishga qiziqish paydo qiladi.

2.2-§. Ta'lim tizimida telekommunikatsion texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va vazifalari.

Hozirgi davrda axborot — jamiyat rivojlanishining asosiy vositasidir. Axborot texnologiyalari rolini oshirish uchun kelajakda ular echishda yordam beradigan masalalar ko'lamini kengaytirish talab etiladi. Bu masalalar majmui axborotlashtirish deb ataladi.

Pedagogika fani ta'lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o'rganadi.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar etakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, Ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'ekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Pedagogika tarixi ta'lim metodlari va tashkiliy shakllari sohasida yangiliklarga boy. Turli bosichlarda texnika taraqqiyoti rivojlanishi bilan bir

qatorda, ko'rgazmali vositalarni, texnik vositalarni o'quv jarayoniga jadal tatbiq etib kelindi.

Buning ma'nosi zamonaviy komp'yuterlar va axborot tizimlari asosida ijtimoiy faoliyatning turli sohalarini qayta urish, rivojlantirish va samaradorligini oshirishdan iborat.

Komp'yuterlashtirish texnik muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi. Axborotlashtirish muammolar majmui bo'lib, u jamiyat hayotining barcha jabalarini qamrab oladi, komp'yuterlar esa uning texnik asosinigina tashkil etadi.

Axborotlashtirish davlatning itisodiy va ijtimoiy darajasini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Taklif etilayotgan innovatsiyalar va umuman o'quv jarayoni samaradorligini oshirish masadida ko'p ishlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, pedagogika, didaktika yagona bir maqsadni — o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish masadini ko'zlaydi. O'quv jarayoni uchun maxsus ishlab chiqilgan texnik qurilmalar juda kam. Faqatgina proektor va chet tillari darslari uchun lingofon qurilmasini shular qatoriga kiritish mumkin. Pedagogika uchun olgan bosha texnik vositalar turmushdan olingan: grammofon, magnitofon, televizor, videomagnitofon va nihoyat komp'yuter. Bu foydali qurilmalar inson hayotining turli sohalarini engillashtirish uchun yaratilgan.

Ulardan har biri turmush, madaniyat va iqtisodiyotdagi vazifalarini belgilab beruvchi o'zining ma'lum xususiyatlari, imkoniyatlariga ega. Har gal biror-bir texnik vositaning ko'zlangan vazifalaridan kelib chiqib bilim, madaniyat ma'lum sohasidagi muammolarni hal etishga yordam beradigan va kundalik hayotda foydali bo'ladigan o'ziga xos texnik sifatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Pedagoglar ham hech qachon bu jarayondan chetda qolmaganlar. Yangi texnik vosita paydo bo'lganida har doim pedagoglar didaktik masalalarni hal etishda undan qanday foydalanish mumkinligi to'risida o'ylay boshlaydilar.

Shunday qilib, pedagoglar o'quv vositalari tabiiy sifatlarini o'rganib, ularning didaktik xususiyatlarini keyin, o'quv jarayonidagi vazifalarini aniqlashga intiladilar. Faqat mana shunday yondashishda navbatdagi texnik vosita haqiqatda

o'quv jarayoni uchun foydali bo'lishi va ushbu jarayonda, ta'lim vositalari boshqa tizimlarida o'zining aniq o'rnini topishi mumkin yoki ilgari foydalanilgan, eskirib qolgan vositalar xususiyatlarini o'zida jamlab oladi, yoki ularni to'ldiradi.

Komp'yuterlar ancha mukammal, qimmatbaho texnik vositadir. Pedagoglar agar komp'yuter ommaviy texnik vosita sifatida yaratilmaganida edi, uni o'quv maqsadlari uchun maxsus yaratish zarur bo'lardi, deb ta'kidlaydilar.

Mana shu bois, ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalari to'g'risida fikr yuritib, diqqat bilan ularning didaktik xususiyatlari va vazifalarini aniqlab olish zarur. Buning uchun quyidagi savollarga javoblarni aniqlab olish kerak:

- didaktik xususiyat nima?
- nima uchun didaktik xususiyatlarni turlarga ajratish kerak?
- Internetning asosiy didaktik xususiyatlari qanday?

Komp'yuter telekommunikatsiya vositalari o'quv jarayonini ta'minlashga imkon berishi barchamizga ma'lum:

- darslar o'quv va o'quv-metodik materiallari bilan;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida qayta aloqa bilan;
- milliy va chet el axborot, ma'lumotlar tizimlaridan foydalanish;
- elektron kutubxonalardan foydalanish;
- mashhur milliy va chet el elektron gazeta va jurnallari axborot resurslaridan foydalanish;
- ta'lim tizimi ichida boshqaruv axborotlarining almashuvi.

O'qish jarayonida telekommunikatsiya vositalarining bunday vazifalari ularda ma'lum didaktik xususiyatlari (DX) mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Pedagog olimlar umumiy fikrlariga asosan, biror-bir ta'lim vositasining didaktik xususiyati deganda, nazariy va amaliy mazmunida didaktika uchun muhim hisoblangan, ularni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy ko'rsatkichlar, mana shu vositaning belgilari tushuniladi.

Albatta, Internetni ta'lim vositalari qatoriga kiritish qiyin. Internet-bu global tarmo barcha imkoniyatlarini, uning barcha xizmatlarini to'la aks ettiruvchi fan-ta'lim shoasi ham mavjud bo'lgan axborot muhitidir. Aynan mana shuning uchun

mazkur xizmatlar didaktik xususiyatlarini tushunish, ya'ni ta'lim jarayoni uchun foydali bo'ladigan ko'rsatkichlarini aniqlab olish kerak.

Internetdan foydalanuvchi pedagogning zarur bo'lgan holatlarda, tarmoqda ishlayotgan paytida duch keladigan tushunchalarni o'zi uchun tushunib olishi mumkin bo'lgan turli an'anaviy hamda elektron tarmoq lug'atlari va axborotlariga murojaat etish imkoniga ega bo'lishi kerak. Balki mana shu ta'riflarda Internet asosiy xususiyatlari ham berilgandir. Turlarga ajratar ekanmiz, izohli lug'atni tuzuvchilaridan umuman boshqa maqsadni oldimizga qo'yamiz. Lug'at tarmoqda ishlash jarayonida ma'lumotlar izlashga yordam beradi. Albatta, izohli lug'atsiz o'qituvchi chet elda mahalliy aholi tilini tushuna olmagan kabi Internet tilini tushunishi qiyin bo'ladi. Lekin izohli lug'at tuzuvchisi o'z oldiga faqatgina o'qitish metodiga ta'sir ko'rsatadigan tushunchalarni tanlash maqsadini qo'ymaydi. Chet el misoliga qaytadigan bo'lsak, u mehmonxonaga qanday borish mumkinligini so'rashni bilishi va tushunib olishi kerak bo'ladi, agar begona davlatga ishlagani kelgan bo'lsa, u erdagi xodimlar bilan munosabatlarda bo'lishni bilishi talab qilinadi. Odatiy mazmunda bu so'zlashuv hamda ixtisoslashtirilgan lug'at kerakligini anglatadi. Turlarga ajratish-tahlil qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Telekommunikatsiya vositalari didaktik xususiyatlarini turlarga ajratishda Internetni ko'rib chiqish bilan cheklanamiz, chunki komp'yuter telekommunikatsiyalarini qo'llash texnik usullari juda turli-tuman. Biroq hozirgi kunda ta'lim ehtiyojlari uchun ixtisoslashtirilgan maktab tarmoqlarini yaratish emas, balki aynan Internetdan foydalanish ko'proq mos kelishi yaqqol ko'rinib turibdi, deb hisoblash mumkin.

Internetning didaktik xususiyatlarini turlarga ajratishda komp'yuter telekommunikatsiyalari xususiyatlari ikkita asosiy sinflarini ajratib ko'rsatish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz:

- ularning telekommunikatsiya bilan bog'liq xususiyatlari, ularning texnologik imkoniyatlari;

- komp'yuterlarni (shu jumladan, multimediali) qo'llash bilan bog'liq xususiyatlari;

Bunday turlarga ajratish tushuncha semantikasi mazmunida qulay, chunki tushunchaning o'zi tabiiy ismlarga bo'linishida o'z ifodasini topadi. Bu texnik nutai nazardan ham o'zini oqlaydi, chunki tegishli xususiyatlarni ta'minlovchi texnik vositalarning o'zlari qam farq qiladi. Bu pedagogik nutai nazardan ham to'g'ri, chunki bu xususiyatlar sinflarining qabul qilinayotgan metodik qarorlarga ta'siri turlicha.

Albatta, bu sinflarning to'ldirilishi hajmi bo'yicha bir xil emasligini hisobga olish zarur. Telekommunikatsiyalar sohasi faqat texnik tushunchalari bilan sermazmun bo'lishiga qaramay, ushbu vositalar didaktik vazifalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlari soni katta emas. Pedagog nuqtai nazaridan bu xususiyatlar oddiy zamonaviy telefon xususiyatlaridan biroz murakkabroqdir.

Foydalanuvchilar keng ommasi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ushbu texnika sohasining jadal va texnik to'g'ri rivojlanishi natijasida mana shunday vaziyat yuzaga keldi. Shu bilan bir vaqtda, bu xususiyatlarning komp'yuter telekommunikatsiyalari metodik imkoniyatlariga ta'siri juda katta va o'sib bormoda.

Shunday qilib, telekommunikatsiyalarning xususan, didaktik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish zarurligidan kelib chiqamiz, biroq ularning pedagogik jarayonga ta'sirini aniqlash oson masala emas. Ularning tushunchalariga didaktika bilan aloqalarini keng ko'rsatib, mana shu xususiyatlarni to'g'ri ifoda etish zarur.

O'quvchilarda mental tafakkur shakllanganda tashqi holatlarga qaram bo'lmaslik, o'z-o'ziga ishonch va ichki xotirjamlik kabi xususiyatlari tarkib topib boradi. Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida fuqarolik jamiyatimizga xos erkin shaxs kontseptsiyasini yoritib berdi. Bular:

- eski totalitar mafkuradan holi;
- qullik, mutelikni tan olmaydigan;
- ijtimoiy zulmdan ozod;

- o'z haq-huquqini tanlash;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga ishongan;
- o'z fikri va dunyoqarashlariga ega bo'lib, atrof – borliqni o'zining qarashlari asosida xolisona tahlil qiluvchi;
- salbiy xislatlardan ozod, ezgu niyatli inson.

Aynan respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini tarbiyalashning uslub va shakllarini ushbu kontsepsiya asosida amalga oshirish davr talabidir.

Yuqorida qayd etganimizdek, ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchi shaxsining mental tafakkurini shakllantirishga imkon yaratadi.

Pedagogik texnologiyaning respublikamizda global muammoga aylanayotganligi ham aynan mana shunda.

Ta'lim texnologiyasi jarayonida o'quvchilarning reflektor tafakkuri shakllanish bosqichidan mental tafakkur pog'onasiga erishish bosqichlari va ularning o'ziga xos dunyoqarashi shakllanishidagi ahamiyatini qayta qurish mumkin.

Ma'lumki, o'quv elementlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish inson tomonidan oldin o'zlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish xarakteriga qarab faoliyatning ikki ko'rinishini farqlash mumkin: nomahsuldor va mahsuldor. Ularning farqi shundan iboratki, nomahsuldor faoliyatda o'quvchi o'ziga ma'lum bo'lgan harakat qoidalaridan foydalanadi va bu jarayonda hech qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi.

Mahsuldor faoliyatni bajarishda o'quvchi doimo yangilikka duch keladi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi.

O'quvchi shaxsi o'quv elementlarini o'zlashtirish faoliyatini rossiyalik taniqli olim V.P.Bespal'ko g'oyasi asosida quyidagi to'rt darajaga bo'lish mumkin:

1-daraja:

pedagog ko'rsatmasi asosidagi harakat.

O'quv material bilan tanishuv pog'onasi.

2-daraja:

o'quvchilarning xotiralari asosidagi faoliyat.

3-daraja:

mahsuldor faoliyatning evristik darajasi.

4-daraja:

faoliyatning yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat, ya'ni faoliyatning ijodiy darajasi.

O'quvchi yoki talabalarining o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun munosib testlar, savollar, topshiriqlar pedagoglar tomonidan ishlab chiqiladi va amalga tatbiq etiladi.

Aynan ta'lim jarayonida o'quv elementlarini o'zlashtirishda o'quv faoliyatini 3-, 4-bosqich darajalariga ko'tarish shaxs mental tafakkurining shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu tajribalarga asoslangan holda talabalar auditoriyasida test, kollokvium, nazorat savollari, nazorat topshiriqlarini ishlab chiqishda ta'lim mazmunini o'zlashtirishni mantiqan qabul qilish va ijodiy faoliyat darajalariga e'tibor berishni nazorat bosqichining asosiy mezonlari deb belgiladik. Aynan ushbu mezonlar ko'rsatkichi ta'lim samaradorligining natijasi hamda pedagoglarimiz ish faoliyatining didaktik maqsadlarga erishgan darajasini ko'rsatmoqda. Muammoli vaziyatlar yoritilgan hikoyalar, mushohadaga chorlovchi savol va topshiriqlar, testlar majmuasini yaratish, ularning samaradorligiga baho berish muhim ahamiyatga ega.

Darsni interaktiv usullardan foydalanib tashkil etish, talabaning erkin nutqini, fikrlash imkoniyatini shakllantiradi. Bu o'rinda mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy inson bilimlarni o'zlashtirishi haqida shunday yozadi: «Bilim shunda haqiqiy bilimga aylanadi, qachonki, unga xotira kuchi bilan emas, balki o'z fikr kuchi bilan erishilgan bo'lsa». Demak, o'quvchilarda fikr kuchi orqali ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirish pedagogik texnologiyalarning bosh masalasidir.

«Didaktik vositalar majmuasi» fanining asosiy maqsadi talabalarni zamonaviy o'qitishning texnik vositalarini qo'llashning pedagogik asoslari,

bilimlari bilan qurollantirish va ularni amaliy ish faoliyatida samarali qo'llashga o'rgatishdir. Didaktik vositalar majmuasi maxsus didaktik materiallar (axborot manbalari) va qurilmalar (statik va dinamik proeksion apparlar va mashq mashinalari) majmuidan iborat bo'lib, o'qitish jarayonida to'g'ri va teskari bog'lanish kanallarini jadal ishlashini ta'minlaydi.

Didaktik vositalar majmuasi fanining asosiy vazifasi – o'qitish jarayoni sifat va samaradorligini oshirish barobarida o'tilayotgan materialni talabalar tomonidan to'liq idrok qilinishini ta'minlashdir.

Mazkur fanni o'rganish jarayonida talabalar quyidagi bilim, o'quv va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim: Didaktik vositalar majmuasini pedagogik–psixologik imkoniyatlarni; zamonaviy audio – vizual vositalarining tuzilishi, ishlash printsiplari, didaktik imkoniyatlarini; o'qitish jarayonining komp'yuter texnologiyasini; Didaktik vositalar majmuasini informatsion materiallar bilan taminlashni; o'qitishning texnik vositalarini qo'llashda sanitariya va mehnat gigienasi talablarini; mashg'ulotlar o'tkazish uchun pedagogik va itisodiy mezonlarga muvofiq o'qitishning texnik vositalarini tanlashni; o'qitish texnik vositalari oraliq ishlatish uchun kerakli bo'lgan informatsion materiallarni tayyorlashni; dasturlashtirilgan nazorat urilmalariga test savollarini tuzishni; avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun o'qitish dasturini tuzishni.

II - BOB XULOSA.

Xozirgi kunda ta'lim jarayonida ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ya'niy ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun o'quv yurtlari fakul'tetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalarning o'rni va roli katta bo'lib, o'quvchi-talabalarni bilimli etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Darslarda yangi materialni bayon etishda o'qituvchi guyo eshittirib fikrlaydi, bunda u o'quvchilarga bilim beribgina kolmasdan, ularga mantikan fikrlash, fan muammolarini xal qilishga ijodiy yondoshish o'quvlarini singdiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun bilimlar manbai va o'quv jarayonini raxbarigina emas, balki taklid qilish uchun namuna xamdir. O'qituvchini o'qitishning texnika vositalari bilan almashtirish o'quv jarayonida juda muhim narsani – o'quvchiga pedagog shaxsning ta'sirini chikarib tashlaydi, bu esa o'quv jarayonini juda kambagallashtirib yuboradi. Barcha texnika vositalarining, shu jumladan, o'qitish mashinalarining xam imkoniyatlari cheklangan – ular fakat o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sirini oshiradigan kuroldir.

Kasb – hunar maktablarida yuqori malakali usta va o'qituvchilar, boy texnikaviy imkoniyatlar, o'quvchilarning texnikaviy ijodiyoti keng rivojlanganligi tufayli o'quv xonalarini o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlashga, bu

vositalarni bilim yurtlarida tayyorlashga, sanoatda ishlab chikarilgan texnika vositalarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmokda.

O'quv kinosi – o'qitishning eng kup tarkalgan texnika vositasi bulib, ob'ekt xamda xodisalarni xarakatda va rivojlanishda namoyish qilishga, materialni tekshirish va umumlashtirishga, shuningdek, anik idrok etishdan abstrakt idrok etishga o'tishga imkon beradi.

Fil'm bilan ishlashning sunggi boskichida o'quvchilar savollar berishiga imkoniyat yaratish kerak. Javob kaytarishga fil'm materialni yaxshi bilib olgan o'quvchilarni jalb etish lozim.

Diafil'm va diapozitivlar, o'quv kinosi kabi, ko'rgazmalilik vositasi xamda o'quvchilar bilimlarining dastlabki manbai bo'lishi mumkin.

O'quvchilarga fandan bilim berishda o'qituvchi foydalanadigan pedogogik vositalar xazinasida kitob muhim urin tutadi. Umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganishga tatbikan olganda kitob- asosiy darslik yoki o'quv qo'llanmasi, kushimcha adabiyot, spravochniklar, GOST jadvallari, xar xil texnikaviy xujjatlar, maxsus jurnallar, ilmiy-texnikaviy axborot organlari xamda xizmatlarning nashrlari, ba'zi xollarda esa ilmiy- ommabop adabiyotdir.

Og'zaki bayonni o'quvchilarning kitob bilan ishlashiga kushib olib borishning ikkinchi varianti, ya'ni o'qituvchi fakat asosiy masalalarni tushintiradigan varianti, o'rganiladigan material nazariy jixatdan asoslashni talab kiladigan va o'quvchilar bu materialni mustakil o'rganishga xali tayyor bulmagan xollarda qo'llaniladi.

Ma'lumki, o'quv elementlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish inson tomonidan oldin o'zlashtirib olingan axborotlar yordamida amalga oshiriladi. Axborotlardan foydalanish xarakteriga qarab faoliyatning ikki ko'rinishini farqlash mumkin: nomahsuldor va mahsuldor. Ularning farqi shundan iboratki, nomahsuldor faoliyatda o'quvchi o'ziga ma'lum bo'lgan harakat qoidalaridan foydalanadi va bu jarayonda hech qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi. Mahsuldor faoliyatni bajarishda o'quvchi doimo yangilikka duch keladi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi.

Darsni interaktiv usullardan foydalanib tashkil etish, talabaning erkin nutqini, fikrlash imkoniyatini shakllantiradi. Bu o'rinda mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy inson bilimlarni o'zlashtirishi haqida shunday yozadi: «Bilim shunda haqiqiy bilimga aylanadi, qachonki, unga xotira kuchi bilan emas, balki o'z fikr kuchi bilan erishilgan bo'lsa». Demak, o'quvchilarda fikr kuchi orqali ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirish pedagogik texnologiyalarning bosh masalasidir.

III-Kasb-hunar kollejlarda o'qitishga ko'rgazmali-ijodiy yondoshish usullari va o'qitishga texnologik yondashish

3.1-§. O'qitishga og'zaki - ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy yondoshish va ularning solishtirma xarakteristikalar.

Pedagogik texnologiyani o'zlashtirib olgan moxir pedagoglar uchun mazkur usulning an'anaviy usulga ko'ra samarali ekanligi ma'lum. Bu esa maktab pedagoglari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy maktab professor-o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o'zlashtirish va amalga qo'llash zarurligini bildiradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "ya'ni pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, talabalarni o'qitishni jadallashtirish" kuzda to'tilgan.

Ma'lumki, pedagogikada talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o'qitish uslublari ishlab chiqilgan; muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi uyinlar, rollar bajarish, mavzuviy o'qitish va xokazo. Ammo ular oliy ta'lim tizimida keng qullaniladi deb bulmaydi. Bizning fikrimizcha buning sababi xar bir mashrutotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni kuzda tutishi, yuksak kasbiy maxoratni, ijodiy yondoshuv va kup vaqtiny sarflashni talab qilishida bulsa kerak. Odatda, xar bir bunday mashg'ulot stsenariysi uziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

Tubdan farq; qiluvchi ta'lim turlarini ko'rib chiqamiz; og'zaki - ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy. Avvalo ularning umumiy jixatlarini taqqoslaymiz, keyinchalik esa boshqa ma'ruzalarda pedagogik texnologiya tushunchalari bilan chuqurrok tanishamiz.

"Og'zaki-ko'rgazmali -(illyustrativ) yondashuv

U an'anaviy bulib va asosan o'qituvchining axborot berishi, talabalarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saklash bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, K.G.Markvardt (1981) fikriga ko'ra, "bilim" tushunchasining asl moxiyati xotirada saklanuvchi axborot sifatida karaladi. Bunday bilimlar, ularning kullay olish kunikmalari orqali tekshirib kuruladi (mtixonlarda), ya'ni

xech kanday kullanmasiz xotiradagi bilimlarni tugridan-tugri savollarga javoban ifoda etio'. Bu tizimdagi bilimlar - asosan esda saklab kolish natijasi, kupincha rasmiy ma'lumotdir. Ular xotira tubidan yuzaga keltiriladigan yoki boshqa so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan tugridan-tugri savol kuyilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saklanmaydi. Kerakli paytda kiyinchilik bilan esga olinadi, ayrim xollarda esa umuman esga olib bulmaydi.

Ma'lumot berish tizimida tayyor bidimlarni "o'qituvchi-talabalarga", bu bilimlarga ularning extiyoji va faollik darajasi boklik bulmagan xolda, bevosita berish mumkin bo'lgan imkoniyatidan kelib chikishadi. SHunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi - zaruriy axborotni ma'lum qilish va uni xotirada mustakkamlash ustida ishlatishdir.

Bunday o'quv jarayonida o'quv predmeti soatlar miqdori, va'z, laboratoriya va amaliy mashtulotlar oraligidagi soatlar taksimoti, dars utish joyi katg'iy belgilab olinadi. Lekin pedagog mashuliyatiga tegishli ta'lim natijasi deyarli xisobga olinmaydi. V.Guzeevning ta'kidlashicha, an'anaviy uslubda ta'lim maqsadlari dastur talablariga muvofik xolda noanik tasvirlanib, ta'lim oluvchilarning "o'zlashtirish" tushunchasi kobigiga uralgan kandaydir noanik tasavvur bilan tavsiflanadi. Ko'proq yutuqlarga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashqil etiladi xar bir anik vaziyat uchun ilgor o'qituvchilarning pedagogik faoliyati namunasi kidiriladi..., ammo ta'limning bir kator olimlari va amaliyotchilari aloxida uslubiyotlarning davri utganligini va xar qayday ilgor pedagoglar tajribalarini umumlashtirish (agar umuman noyob xodisalarni umumlashtirish mumkin bo'lsa) tizimli va maqsadga yunaltirilgai garovlangan, samarali ta'limni kurish imkonini bermasligini qayta-qayta ta'kidlash mumkin.

Ta'limda og'zaki - kurgazmali yondashuv juda katta tajri-baga ega va kismllarga ajratilib ishlab chiqilgan bulib, ta'lim tizimida ulkan xizmat kursatdi. U biroz bulsada takomillashuvni davom ettirmokda, ammo bu takomillashuv yondoshuvning konuniyatlari doirasida cheklangandir. Jadal surhatlar bilan usib

borayotgai fan va texnika talablari, ta'lim tizimidagi isloxotlar rakobatbardosh kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish istaklarini koidirishga bo'lgan jamiyat extiyojlari hamda o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tugilishiga olib keldi.

I.P.Podlasqyning (18) ta'kidlashicha "Texnologiya yaratilguncha shaxsiy maxorat xukmronlik qiladi. Ertami, kechmi, shaxsiy maxorat "jamoa maxoratiga" aylanadi va uning mujassam ifodasi bulib texnologiya xizmat qiladi."

1-jadval

Shaxsiy maxorat	Umumiy texnologiya
1. Jarayon boshidan oxirigacha xodim tomonidan bajariladi	1. Jarayon bulaklarga ajratiladi, Xar bir xodim uz bulagini bajaradi
2. Jarayonga boglik barcha bilim va ikir-chikirlarni bilish zarur	2. Fakat ueiga birkirilgan jarayon kismini bilishi zaru'r
3. Barcha ishni uzi bajarishi zarur	3. Barcha ishni qilishni inkor etuvchi "tayyor" ishlanmalar tadbik etiladi
4. Jaraen davomli (<i>uzoq</i>)	4. Jarayon bir muncha tezlashadi
5. Maxsulot sifatli	5. 'Maxsulotning sifati kam emas
6. Ichki tuygu, sezgi va tajribaga asoslanadi	6. Ilmiy asoslangan xisob va bilim
7. Maxsulot ishlab chikkaruvchi imkoniyat-lari bilai cheklanadi	7. Maxsulot ayrim ishlab chikaruvchilarning imkoniyati bilan

Eng avvalo, ta'linga texnologik yondashuvning umumiy tavsifnomasi (kismlarga ajratmagai xolda), ta'limning juda oddiy maxsuldor darajasi sifati misolida karaymiz. Bunday variantning tanlanishi M.V.Klarinning "Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse" asarida keltirilgan tizimga mos keladi (81).

Ma'lumki, maxsuldor ta'lim o'quvchilarni yod olingan koidalar asosida, bir xil vaznyatdagi namuna buyicha xatti-xarakatlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Kupchilik ykuv rejalari natijali darajada o'zlashtirilsa ham, unda maxsuldorlik belgilari ishtirok etadi va u talabalarda odatdan tashkari vaziyatdagi vazifalarni ma'lum qoidalarni jamlagan xolda yangi algoritm yaratib echish ko'nikmasini xosil qiladi.

"...Muqaddam qo'llanilgan va o'qituvchi uchun ishlab chiqilgan darsma-dars uslubiy ishlanma urniga pedagogik' texnologiyada o'quvchining o'quv-o'zlashtirish» jarayonining tarkibi va mazmunini aniqlab beruvchi o'quv jarayoni loyixasi taklif etiladi" deb yozgan edi V.P.Bespalg'ko.

Pedagogik texnologiya doirasida maxsuldor darajadagi ta'lim annik qayd etilgan va qismlari tavsiflanib, o'tilgan natijalari bilan asl xolicha qaytarish lozim bo'lgan konveyerli jarayon sifatida ko'riladi. O'quv ashyolari aniq qayd etilgan ykuv maqsadiga mos xolda ishlab chiqilgan, maxsus qismlarga (modullarga) ajratilgan, o'quv mavzularini tavsiya etishning muqobil yo'llarini ko'zda tutadi, xar bir qismi test va qo'shimcha tuzatishlar kiritish bilan hamoxang bo'ladi, O'quv ishlari yuqori natijalarga erishishga qaratilgan. Bunday yo'naltirilganlik mashg'ul bulish musobaqalashish va o'zaro yordamlashish tushunchalaridan xalos emas. Shu bilan birga u butun ta'lim jarayoniga maxsuldor kurinish beradi. Shuning uchun ham u eng zaruriy bilim, kunikma va malakalarni o'rgatishda ko'proq samara beradi. V.I.Orlov (1998) shunday deydi: Xozirgi paytda maxsuldor (reproduktiv) o'quv jarayoniga ikkinchi darajali deb qaralmoqda. Xolbuki, odamlar butun xayoti davomida fakat maxsuldor mexnat bilan banddir, aks xolda u uzini eng zarur narsalar bnlan ta'minlay olmas edi. Tarbiyalanuvchilar (faoliyatida maxsuldorlik asosiy urinni egallashi zarur va shunday sharoitdagina eng zarur bilimlar xajmini egallashi va ijod uchun munosib sharoit yaratishi mumkin".

Shuni ta'kidlash joizki, ma'lum sharoitlarda bir o'quv mavzusini maxsuldor usulda ikkinchisini - izlanuvchan-tadkikot usulida o'zlashtirish qulaydir. Shunday qilib, maxsuldor ukish boskichida pedagogik texnologiyani o'zlashtirish izlanuvchan – tadqiqot usuliga asoslangan pedagogik texnologiyaga o'tishning mustaxkam tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lum kishilikda aytilgan iboradek - "maxsuldor o'qishga gurrurli qaramang". Faqat boshlangich davrda maxsuldorlik boskichiga asoslangan, murakkab bo'lmagan o'zlashtirish jarayonini egallay borib yuqorirok bo'lgan izlanuvchan-tadqiqot yoydashuviga o'tish mumkin bo'ladi. Texnologik yondoshuvni qo'llash qo'yilgan o'quv maqsadlariga albatta erishish imkonini beradi. Bunday samara beruvchi mexanizmlar keyingi ma'ruzalarda uz aksini topgan.

Izlanuvchan yondashuv.

Bundagi maqsad o'quvchilarda muammoni xal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish, ta'sir etishning yangi yullarini yaratish kobiliyatlarini, o'axsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir.

Izlanuvchan ta'lim andozasinipg ta'lim mazmuni, tabiat va jamiyat bilan uzaro ta'siri natijasida shaxs tadjikotchilik va jadal ijodiy xarakterli faoliyat yuliga boshlanadi. Shu bilan birga pedagog ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda demokratik, ragbatlantiruvchi yul tutadi, ularning shaxsiy tashabbuslarini kullab-kuvvatlaydi, hamkorlikda ishlashga dahvat etadi, o'quvchilar o'quv faoliyatyaning operativ- texnik jixatlarini o'zlashtirishga kadar uning ahamiyati va ragbatlarini birinchi uringa olib chikadi. Avval ta'kidlanganidek, xozirga kadar o'qitishda izlanuvchan yondoshuvni uz ichiga oluvchi pedagogik texnologiya kurinishlari ishlab chiqilgan. Umumlashtiramiz;

Ta'limga yondashuvning kiyosiy tavsifnomasi

Tushuntiruv-namoyish (an'anaviy)	Texnologik	Izlanuvchan
O'qituvchining talabaga ma'lumot berishi . Anik bulmagan o'quv maqsadlari Tayyor bilimlarni bayon qilish Suhbat va xikoya-ta'lim berishning ustuvor tashqiliy shakllari Tasvirchilik va ma'lum darajada kotib kolganlik Bilimlarni majburiy tarzda esda saklab kolish Axborotni xotirada saklab qolish, musta'kamlash va to'plashga doimo undash Bilish bosqichlarini bir butun tizimiga etarlicha bog'lanmagan fanlar tashqil etadi Mashg'ulotlar (asosan) akademik xarakterga ega va mutaxassislarning bo'lg'usi faoliyati bilan etarlicha bog'liq emas	Tizimli yondashuvdan foydaplangan xolda o'quv jarayonini loyixalash Ko'zlangan andozaga ko'ra ta'lim oluvchining kuzatilishi mumkin bo'lgan xarakterlarining jamlamasi kurinishida o'quv maqsadlarini mumkin qadar aniqlashtirish Ta'lim oluvchilarning xatti-xarakterlari orqali o'qitish Ta'lim oluvchilar bilan aloqa bog'lash yordamida ta'lim jarayoniga tuzatish-lar kiritish. Shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi baholar Mezonli nazorat (test o'tkazish) Bilim va ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirish Rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish Ta'limning samaradorligi	Muammolarni echish O'quv tadqiqoti Predmetlararo aloqa Farazlarni olg'a surish va tekshirish Ma'lumot to'plash Modellashtirish, sinov tajriba (eksperiment) Refleksiv, tanqidiy, ijodiy tafakkur Ko'p mezonlik, asoslanganlik Xulosa chiqarish Rolp bajarish SHaxsiy ma'no topishga intilish Xulq-atvor, ma'naviyat, ijtimoiy mas'uliyat, tafakkurni yuksaltiruvchi yangiliklarga nisbatan xozirjavoblik

O'quv jarayonining texnologik shakl modeli va uning amaliy tadbiki yangilik xususiyatiga egadir va an'anaviy ta'limni qayta shakllantiradi.

Ta'kimash lozimki, pedagogikada ham texnologik, ham izlanuvchan yondashuvlar zarur: xar birining kullaniladigan urni bor va ularning makbul ravio'da birga kushib olib borilishi maqsadga muvofikdir.

Oldin eslatib o'tilganidek, bugungi kunga kadar rivojlangan davlatlarda ta'limning turli darajalari uchun pedagogik texnologiyaning andozalari ishlab chiqilgan, jumladan, natijali va izlanuvchan ijodiy ta'lim uchun, ular xakida keyinchalik so'z yuritiladi, O'zbekiston pedagoglari pedagogik texnologiya bilan etarlicha tanish emaslar. Albatta, bu xolatni tuzatishga jiddiy ehtibor karatish zarur. *Ko'p boschkichli tag'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyot buyicha olib borilishiga yul kuyib burmaydi.**

Ta'lim tizimidagi keng kamrovli tarkibiy isloxotlarni respublika pedagoglari ilgor pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga kullash bilan mustaxkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yoidoshuvlarini urgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashkari uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

Texnologik yondoshuv doirasida yaratilgan didaktik loyixalash usullariga bo'lgan munosabatingiz o'quv jarayonini samarali va shu bilan birga o'quv jarayonini ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baxolashga yordam beradi.

Darsliklar yaratuvchi mualliflar ham pedagogik texnologiya asosida o'qitishning xususiyatlarini xisobga olishlari juda muximdir.

Qayd etish joizki, an'anaviy o'quv jarayonida texnologik yondashuvni tulaligicha emas, balki ayrim kismlarini kullash (ularni o'zlashtirilganligi va tegishli uslubiy tahminotning tayyorligiga karab) mumkin. Bu, eng avvalo, pedagogik texnologiyaning yadrosi, markazi xisoblangan aloxida o'quv maqsadlarini aniqlashtirish usullariga tegishlidir.

3.2-§. Kasb hunar ta'lim tizimida o'qitishning individual yozma - ko'rsatmali va individual-brigada usullari.

Aniq o'qitish tizimini tuzishga texnologik yondashish turlicha usulda shakllantiriladi. Juda ko'p bunday variantlarni ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmagani uchun biz quyidagi, har biri o'zicha qiziqish uyg'otadigan ikki usulga to'xtalamiz. Biz ularda mezoniy yo'naltirilgan o'qitishni aks etganligiga ishonch hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. (6-mavzuga qarang).

Individual yozma-ko'rsatmali o'qitish tizimi o'tgan asrning 60-yillarida Pitterburg (AQSH) universitetining ta'lim bo'yicha tadqiqotlar olib borish va uslubiy materiallar ishlab chiqish Markazida yaratilgan. O'qitishning bunday individuallashtirilgan usuli dastlab boshlang'ich sinflar (tayyorlov sinfidan to 6-sinfgacha) uchun mo'ljallangan. U o'qish, yozuv, chiroyli yozuv, matematika va tabiatshunoslik fanlarida qo'llanilgan.

O'quv materiali yuzlab aniqlashtirilgan maqsadlardan iborat bo'lib, ular fan va uning bo'limlari hamda o'zlashtirish darajalari bo'yicha guruxlarga ajratilgan va o'quv maqsadlari qat'iy ketma-ketlik bo'yicha joylashtirilgan. O'rganiladigan material va o'quv faoliyatining turlari tanlanmaydi, balki ular o'quv dasturida bayon etiladi. Bunda ko'proq yakka tartibda o'qitish ustivorlik qiladi, ba'zi hollarda kichik guruhlar bilan mashg'ulot tashkil etilishi ham mumkin. O'quvchi o'zining ulgurish sur'ati bo'yicha dasturni o'zlashtirib boradi. Bunda o'quv maqsadlari tashqaridan kuzatiladigan harakatlar bilan qat'iy bir xil ma'noli tarzda ifodalanishi zarur.

Matematika va o'qishga oid maqsadlardan bir necha misollar keltiraylik: «O'quvchi umumiy maxrajga ega bo'lgan ikki kasrni qo'shadi», «O'quvchi bir xil ma'noli so'zlarni ajratadi», «O'quvchi hikoyani o'qib, og'zaki bayon qilib beradi». O'qitishning bu tizimini amalga oshirishda o'quv maqsadlarining xarakteri muhim rol' uynaydi. O'quv maqsadlariga erishishning me'yori sifatida shartli belgilangan darajasi (85 foiz) - har bir maqsad uchun bir necha na'munalar tavsiya etilishini talab qiladi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

1. O'quv yilining boshida o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan aniq dasturga oid boshlang'ich bilimlar darajasini aniqlash uchun test sinovidan o'tkaziladilar. Bunda ushbu bo'limning har bir o'quvchi tomonidan to'la o'zlashtirilishi nazarda tutiladi.

2. So'ngra dastlabki blok bo'yicha test o'tkaziladi. Uning vazifasi o'quvchi qaysi o'quv maqsadlarini qaysi darajada egallaganligini aniqlashdir (me'yor 85 foiz).

3. Dastlabki test sinovi natijasiga asosan o'qituvchi har bir talaba uchun ko'rsatma tuzadi, unda o'quv faoliyatining barcha turlari: o'qituvchidan yakka tartibda maslahat olish, darslik va boshqa nashr etilgan materiallar bilan ishlash, texnik vositalardan foydalanish, guruh (sinf) bo'yicha mashg'ulot o'tkazish va hakoza bayon etiladi.

4. O'quvchi o'quv materialini oladi va uni qismlar bo'yicha o'zlashtirib boradi. Har bir qismni o'zlashtirib bo'lgandan so'ng testdan o'tadi va u talab etilgan darajada (85 foiz) o'zlashtirganligini ko'rsatishi zarur. Faqat shundan so'nggina, unga boshqa o'quv maqsadini o'zlashtirish uchun o'tishiga ruxsat beriladi.

5. O'quvchi barcha o'quv maqsadlarini o'zlashtirib bo'lgandan so'ng, u mazkur blok bo'yicha yakunlovchi test-sinovidan o'tadi. Bu test dastlabki testning bir varianti bo'lib, ushbu blokda o'quv materialining barcha qismlarini to'la-to'kis qamrab oladi.

6. Agar o'quvchi bir yoki bir necha o'quv maqsadlarini o'zlashtira olmasa, o'qitishning bu qismi boshidan takrorlanadi. Agar yakuniy testda talaba 85 foizdan yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa, mazkur bo'limni to'la o'zlashtirgan hisoblanadi va navbatdagi bo'limni o'rganishga o'tadi. Bu bo'limga tegishli o'quv maqsadlari bloki bo'yicha yana dastlabki testdan o'tadi. O'quv harakatlarining bunday tartibi har bir blok uchun takrorlanaveradi.

Bu tizimning yuqori darajada aniqliligi va tushunarli ekanligini tan olish lozim. O'quv materialini o'quvchi harakatida o'z ifodasini topadigan ayrim qismlarga ajratilganligi, buning kaliti bo'lib hisoblanadi. O'qitishning bu tizimi

ma'lum darajada muvaffaqiyat qozondi, chunki uning asosini mezoniy baholash va aniq maqsadga yo'nalganlik tashkil etadi. Lekin, bu tizim faqat reproduktiv o'qitish darajasi bilangina chegaralanadi. Ikkinchidan, bu tizim o'z mohiyati bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorlik, o'zaro yordamga asoslangan faoliyatini chegaralaydi va ularni bir-biridan ajratib qo'yadi. Faqat yakka tartibda ishlashga asoslanishi talabada bo'laklarga bo'lingan o'quv jarayonining sezilmas doirasi bilangina cheklanib qolish sezgisini vujudga keltiradi. Albatta tizimning bu kamchiliklarni o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, e'tibori, muloqoti bilan bartaraf qilishi lozim.

O'qitishning individual-brigada tizimi o'tgan asrning 80-yillarida Jons Gopkins universitetida (AQSH) ishlab chiqilgan va boshlang'ich sinflarda matematika darslarida qo'llangan. So'ngra, u kollejlarda va boshqa o'quv yurtlarida ham tadbiiq qilinib, ijobiy natijaga erishilgan.

Bunda - individual tartibda o'qitish kichik guruxlarda ishlash bilan uyg'unlashtirilib olib boriladi. Talabalar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadilar. O'qituvchi guruxni har tomonlama (jinsi, bilim darajasi, millati) turlicha bo'lishiga alohida e'tibor beradi.

O'quv materiali dasturlangan qismlarga-bo'limlarga bo'linadi. Har bir talaba materialni o'zining ulgurish sur'atiga muvofiq holda o'zlashtiradi. Ularning harakat tartibi quyidagicha:

- 1) mazkur bo'limni o'zlashtirishga oid o'qituvchi tuzgan (u yoki bu ko'nikma va malakani egallashga mo'ljallangan) ko'rsatma bilan tanishtirish,
- 2) ko'nikma va malakalarni tashkil etuvchilariga oid bo'lgan bir necha ishchi rejalarni ishlab chiqish,
- 3) ko'nikmalarni egallaganlik darajasini mustaqil tarzda tekshirib ko'rish,
- 4) yakuniy test sinovi o'tkazish.

Brigada a'zolari juft bo'lib ishlaydilar, tekshiruv va raqamlarini o'zaro almashadilar va bir-birlarini bajargan ishlarini 100 balli shkala bo'yicha tekshiradilar. Agar talaba mustaqil ishlashda va o'zaro tekshirishda 80 foizdan yuqori ko'rsatkichga erishsa, unga bu ko'nikma bo'yicha yakuniy testdan o'tishga

ruxsat beriladi. Bu tekshiruvni o'qituvchi tavsiyasiga ko'ra eng yaxshi o'zlashtirgan talabalar o'tkazadi. Har bir talabaning hafta davomidagi test ko'rsatkichlari va test sinovlari soni bo'yicha brigadaning umumiy ko'rsatkichi aniqlanadi. O'qituvchi oldindan e'lon qilgan ko'rsatkichlarga erishgan brigada hafta yakuni bo'yicha sinovdan o'tgan hisoblanadi. Joriy nazoratlar asosan talabalar tomonidan o'tkazilgani uchun, o'qituvchi ayrim guruxga yoki talabalarga alohida e'tibor berishi imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv faoliyatini tashkil etishda talabalarning o'zaro yordam va o'zaro hamkorligi alohida o'rin tutadi. Bu esa, ayniqsa, o'zlashtirishi bo'sh talabalar uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

O'qitishning individual-brigada usuli - asosan guruh bo'yicha o'zlashtirish yoyilmasi juda katta va o'zlashtirmovchilarning ko'pligi sababli guruh bo'yicha o'zlashtirishni yaxshilash qiyin bo'lgan hollar uchun mo'ljallangan.

O'qitishning bu tizimi bo'yicha o'tkazilgan eksprementlarning ko'rsatishicha, undagi o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro nazoratga asoslangan mehnat ayniqsa, o'zlashtirishi past bo'lgan talabalar uchun nihoyatda foydali bo'lib, ularga o'quv materialini o'zlarining ulgurish sur'atlariga mos holda o'zlashtirish imkoniyatini berishini ko'rsatadi. O'zlashtirishning yaxshilanishi bilan birga talabalarda (ayniqsa, aqliy rivojlanishi orqada qolganlarda) o'z-o'zini baholashga o'rganishlarini ham sezilarli darajada rivojlantirgan. Turli millatga mansub talabalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar ham yaxshilangan. Bunday ijobiy natijalar o'quv jarayonida «shaxs omili»ni to'g'ridan-to'g'ri hisobga olishning samaradorligini ko'rsatadi. Afsuski, ko'pgina uslubiy ishlanmalarda o'qitishning bu muhim jihati e'tibordan chetda qoladi. Aksincha, uni har bir didaktik izlanishlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlarni didaktik konstruksiyalash usullari. Pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv jarayonini rejalashda o'qituvchining darsga tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. YUqorida maqsadlarni aniqlashtirish, o'quv materiali va nazorat ishlarini tayyorlash, o'quv faoliyatini shaklini tanlash haqida fikr yuritildi. Pedagogik amaliyot ko'rsatganidek, aynan o'quv faoliyatini rejalashda

o'qituvchilar jiddiy qiyinchilikka uchraydilar va bu ulardan yuqori malaka va tajribaga ega bo'lishni talab qiladi. Chunki bunda, aniq ko'rsatmalar (algoritmalar) tuzish nisbatan ko'proq ijodiy yondashishni talab qiladi.

Yaponiyalik olimlarning o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quv faoliyatni tashkil etish bo'yicha taklif etgan usullarini ko'rib o'tamiz. Bu usullarga xos bo'lgan umumiy belgi shuki, ularda o'qituvchi ajratib olgan o'quv material blokiga oldindan tayyorgarlik ko'rishni nazarda tutiladi. O'qituvchi bu blok uchun asosiy o'quv maqsadlari va umumiy ish rejasini tuzgan bo'lishi lozim. Ularga xos yana bir muhim jihat - bu usullarda anglatuvchi (imitatsiya) modellashning u, yoki bu shaklidan foydalanish bo'lib hisoblanadi. Bu usullarda qisqacha to'htalib o'tamiz:

1. «Tafakkurni modellash». O'qituvchi barcha talabalar uchun reja asosida muayyan bo'lim bo'yicha o'quv materialining boshlanishi, o'rtasi va oxiriga bog'liq bo'lgan umumiy ko'rsatmalarni tayyorlaydi. So'ngra, u talabalarning fikrlash yo'nalishlarini o'z tasavvurida yozma ravishda ifodalaydi, yozuvlar alohida kartochkalarga yoziladi. So'ngra kartochkalar talabalar fikrlash yo'nalishi turlari bo'yicha turkumlanib, tartib bo'yicha joylashtiriladi va ular orasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Bu usul o'qituvchiga talabalar idroki va tafakkuriga asoslanish, o'quv materialini ularning bilish qobiliyati yo'nalishlariga mos holda tushuntirib o'qitishni individuallashtirish imkoniyatini beradi.

2. Rollarga bo'lib ijro etiladigan o'yinlar. Bu usulni bir fan, bir tsiklga kiruvchi fanlar yoki bir sinfda dars beruvchi turli fan o'qituvchilari amalga oshirishlari mumkin. O'qituvchilarning o'z ixtiyorlari bilan qiziqib ishtirok etishlari bu usulning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ishtirokchilar soni 4-6 kishidan iborat bo'lishi etarli. O'qituvchilar talabalar kiyofasiga kirib, ularning idroki, reaksiyasi va ular dars davomida duchor bo'ladigan qiyinchiliklarni anglatuvchi harakatlarni bajaradilar. O'yin natijalari asosida o'qituvchilar faoliyati ham modellenadi.

3. Imitatsion-rollarga bo'lib modellash. Bu usulda 4-6 kishidan iborat o'qituvchilar guruxi talabalar qiyofasiga kiradilar hamda o'qituvchi ular bilan aniq

o'quv maqsadlari va mezoniy yo'nalgan testlar bo'yicha mashg'ulot o'tkazadi. Talabalarning fikrlashdagi harakat modellari yaratiladi va ular alohida kartochkalarga yoziladi. O'qituvchi qiyofasini bajaruvchi o'yin ishtirokchilarining o'z hatti-harakati, fikrlashining borishi bo'yicha bergan ma'lumotlarni saralab kartochkalarga yozib boradi. Shuningdek, kartochkaga o'z hatti-harakatlarini ham yozib boradi.

So'ngra «o'qituvchi» va «talabalar» faoliyatining umumiy manzarasi va har bir ishtirokchi fikrlashining borish sxemasi chizmakashlik varag'iga tushirilib, darsning o'ziga xos sxema-diagrammasi yaratiladi.

Bu usul al'ternativ (turli variantli) rejalarni sinab ko'rishda, ularga tegishli tuzatishlar kiritishda qo'llaniladi va bu bilan haqiqiy o'quv jarayonini ixchamlashtirib, uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

4. Tutashtiriluvchi chiziqlar usuli. Bu usul talabalarni o'quv jarayonining borishiga nisbatan o'z munosabatlarini tezkorlik bilan bildirishlarini ta'minlaydi. O'qituvchi o'quv jarayonini bir necha (100 tagacha) muhim qismlarining ro'yxatini tuzadi. Masalan:

- 1) o'quv maqsadlari,
- 2) o'quv materiallari,
- 3) topshiriqlar,
- 4) texnik vositalar,
- 5) talabalar qobiliyatlari va hatti-harakati,
- 6) talabalarni guruhlariga ajratish,
- 7) o'qituvchi va talabalarining o'zaro muloqoti,
- 8) o'qituvchi hatti-harakati.

So'ngra o'qitish samaradorligini bir necha ko'rsatkichlari yoziladi (masalan: o'zlashtirish, ko'rgazmali bayon qilish, tushunarli bo'lishi, talabalarda umumiy qoniqish hosil bo'lishi, vaqt sarfi va h.k.). So'ngra o'qituvchi varaqlarni talabalarga tarqatadi. Bu varaqlar uch qismga bo'lingan holda:

- 1) chap ustunga o'quv jarayoni qismlari,

2) o'rtağa har bir o'quv qismining belgilari (masalan: «Topshiriq» - og'zaki, yozma, ijodiy, qaytarish, «Talabalarni guruhlash» - frontal ish, uchta brigadaga bo'lish, besh-olti kichik guruxlarga ajratish),

3) o'ng ustunga esa, samaradorlik ko'rsatkichlari ruyxati yoziladi. Har bir talaba o'z mulohazasi bo'yicha bu uch ustunchada yozilganlarni chiziqlar chizib tutashtiradi va varaqni darhol o'qituvchiga topshiradi. O'qituvchi varaqlarni tahlil qilib, qo'llayotgan usul va uslublarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, faoliyati samaradorligini har bir talabada aks etishi to'g'risida tezkor ma'lumotga ega bo'ladi.

IV.Mehnat muxofazasi

4.1.EXM da ishlashda xavfsizlik talablari

Ish boshlashdan oldin xavfsizlik talablari:

EXM va boshqa elektr qurilmalarini yoqish uchun EXM da ishlash uchun javobgar shaxs (EXM operatori yoki mashg'ulot raxbari) ning ruxsati kerak.

Mashg'ulot raxbari yoki SHEXM mutaxassisi (operator) EXM ni yoqishdan oldin:

— EXM, orgtexnika vositalari va boshqa qurilmalarning kuchlanish tarmog'iga to'g'ri ulanganligini tekshirishi lozim;

— ish joylarining etarli darajada yoritilganligini va tabiiy va sui'iy vetilyatsiya (xavo almashinish) ning to'g'ri ishlayotganligiga ishoich xosil qilish kerak.

Talaba EXM ni yoqishdan oldin:

—ish joyini tayyorlashi, ishga keraksiz narsalarni yig'ishtirishi kerak;

—sezilgai texnik nosozliklar to'g'risida mashg'ulot raxbari yoki EXM mutaxassisini xabardor qilish kerak.

Man etiladi:

— ochiq kabelli nosoz qurilmalarni. buzuvq razetkalap va b. elektr o'rnatmali qurilmalardan foydalanish.

Ish vaqtidagi xavfsizlik talablari:

EXMda ishlash vaqtida mashg'ulot raxbari yoki EXM mutaxasisiing ruxsatisiz EXM qurilmalarini yig'ish, yoyish va ulash man etiladi.

Man etiladi:

—nosoz EXM va orgtexnika vositalarida ishlash man etiladi;

—qurilmalarni qayta ulash (perekommutatsiya);

—etarli yoritilmagan yoki shamollatilmaydigan ish joylarida ishlash:

—agar qurilma korpuslariga tegilgaida elektr toki xarakati sezilsa, unda ishlash;

—EXM va orgtexnika vositalari korpuslarini ochish, periferiya va boshqa qurilmalarni yoqish;

- kerak bo'lmagan vaqtda printer va boshqa periferiya qurilmalarini yoqish;
- elektr tarmog'iga ulangan EXM, orgtexnika vositalari va boshqa qurilmalarni nazoratsiz qoldirish.

Ish tugatilgandagi xavfsizlik talablari:

Talabalar uchun shart:

- ishlayotgan ilovalarni yopish, ish seansini tugatish, EXM ni orgtexnika vositalarini va boshqa qurilmalarni elektr tarmog'idan uzish;

EXM operatori:

- komp'yuter sinfi yong'in belgilariga, begona predmetlarga va b.larga tekshirish;

- EXM ni elektr tarmog'idan uchirish, xona chiroqlarini, konditsioner va boshqa elektr qurilmalarini o'chirish;

- xona derazalarini, reshetka, eshiklarni yopish va xonani muxrlash;

- signalizatsiya mavjud bo'lgan taqdirda komp'yuter xonasining signalizatsiyasini yoqish;

- komp'yuter xonasini qorovul xizmatiga topshirish va maxsus jurnalga belgilab qo'yish;

4.2. EXM foydalanuvchilari uchun qoida va talablar

Umumiy qoidalar:

—foydalanuvchiga axborotning saklanishi va axborot almashinuvining konfidentsialligi kafolatlanmaydi;

—foydalanuvchi EXM va orgtexnika vositalarida, o'z nomidan yoki o'z ish joyidan tarmokdan foydalanish uchun to'liq javobgar.

Foydalanuvchi quyidagi talabapga ega:

—ish joyidagi bitta kompioterda ishlash, unda o'rnatilgan istalgan ilovalardan foydalanish;

—ish jarayonida yaratilgan xujjatlar va fayllarni uning uchun ajratilgan qurilmaga (lokal disk yoki shaxsiy tarmoq diski S:) va disketaga (A:) saqlash;

—o'qish yoki ishlash davrida o'rnatilgan namunadagi va xarakteristikali elektron pochtdan foydalanish;

—agar bosmaga chiqarish pulli bo'lsa, bosma narxini avvaldan OO'YU kassasiga to'lash va kassa chekini EXM operatoriga ko'rsatgach ma'lumotlarni bosmaga chiqarish:

Foydalanuvchi majbur:

—ish boshlashdan avval texnika va yong'in xavfsizligi bo'yicha instruktajdin o'tish;

—EXM va orgtexnika vositalarida ishlash koidalarini bilish va ularga rioya qilish;

—tizimda faqat o'z nomidan foydalanish birovning nomi va parollaridan foydalanish man etiladi;

—EXM da mustaqil ishlash uchun oldindan o'qish va ruxsatga ega bo'lish, SHK mutaxassisi (operatori) ga o'z shaxsini tasdiqlovchi xujjat (student bileti yoki sinov daftarchasi) ni ko'rsatish;

—tarmoqda ishlaganda qabul qilingan etika va axloq qoidalariga rioya qilish;

—komp'yuter xonasida sanitar normalariga rioya qilish:

—barcha qoidabuzarlik xaqida mashg'ulot raxbariga yoki SHK mutaxassisiga xabar berish;

—tarmokda ishlaganda “Axborot tarmog'i”da ishlash tartibi va qoidalariga rioya qilish.

Qat'iyon man etiladi:

— o'qituvchi (operator) ruxsatisiz komp'yuter xonasga kirish va SHEXM va orgtexnika vositalari bilan ishlash:

—uqituvchi (operator) ruxsatisiz shaxsiy disketalar bilan ishlash;

—EXM da ustki kiyimda ishlash;

—klaviaturani tizzaga qo'yib ishlash:

—komp'yuterni «Power» tugmasi yordamida qayta yuklash;

—tizim bloki, monitor va periferiya qurilmalarining korpuslarini ochish;

- EXM ni siljitish, qurilmalarini qayta ulash va ular ustiga begona narsalarni qo'yish;

—birorta-bir nosozliklarni mustaqil bartaraf etish;

- operatsion tizim parametrlarini o'zgartirish;

—monitor ekraniga qo'l bilan tegish, va uning boshqa periferiya qurilmalarni sozlashni o'zgartirish

—istalgan dasturni o'rnatish, jarayoniga taalluqli bo'lmagan boshqa foydalanuvchilar ishiga xalaqit qiluvchi va tarmoq sozlanishlari xaqida axborot olish mumkin bo'lgan dasturlarni ishga tushirish;

—diskovod va CD—ROM qurilmalariga fizik iosozliklar izi bo'lgan SD disklapni qo'yish, yomon yopishtirilgan etiketkali disketlar va begona predmetlarni kiritish;

—boshqa foydalanuvchilarning tarmoq resurslarini ko'rish va undan foydalanish:

- tarmoq registratsiya nomi va parolini birovga berish;

—boshqa foydalanuvchilarning normal ishini buzuvchi ish uslub va usullaridan foydalanish;

—EXM va qolgan foydalanuvchilarning normal ishini buzuvchi zararli dasturlarni yaratish va foydalanish;

- yaqin va uzoqdagi serverlarga ruxsat etilmagan kirishga (nesanktsionirovanniy dasturi) xarakat qilish;

—OO'YU faoliyatiga tegishli bo'lmagan xar qanday yozishmalarga (ftp-mail, mail-server, www, mail va boshqa) obuna bo'lish;

— elektron xatlarni ommaviy jo'natish, birorta-bir axborotni boshqa foydalanuvchiga jo'natish iltimosi bilan axborotlar jo'natish, konunchilikka to'g'ri kelmagai tarmoq resurslarini yaratish na saqlab qo'yish:

—EXM va tarmok resurslaridan kommertsiya maqsadlarida foydalanish;

—printer bilan ishlagaida:

- qurilma bosmaga chiqarishga tayyor turgan xolda uni o'chirish;
- bosmaga chiqarish jarayoiida qog'oz qo'yish yoki olish;
- qisilib qolgan qog'ozni mustaqil olishga urinish;
- printer qog'ozini ochish;
- qurilma xarakteristikalariga mos kelmaydigan materialdan foydalanish, masalan, karton, plyonka va b.

■ agar bosmaga chiqarish vaqtida tarmokda elektr toki o'chib qolsa, bu xaqda auditoriya raxbariga xabar berish.

4.3.Ergonomika - komp'yuterda ishlashning sub'ektiv ko'rsatmalari.

Bizning temir o'rtoq bilan muloqotimiz zararsiz bo'lish kerak.

Komp'yuterdan foydalanuvchilar sog'lig'iga ta'sir etuvchi asosiy zararlar.

Bu zararlar komp'yuter bilan bog'liq bo'lmagan faktorlardir.

- uzoq gipodinamiya
- qon kapilyarlarida qonning quyuqlashishi bilan bog'liq

Tana qismlarida fiziologik bo'lmagan xolat bu kishi tanasining fiziologik xolati deyiladi.

Bu xolatni aniqlashning usuli shuki, kishi tanasi bilan tuzli suvga tushganda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu xolatda mushaklar bo'shashib unga tabiiy tinchlik ko'rinishi ta'sir etadi. Yana aniq bir xolatga keladi.

Bo'yin va elka uchun vertikal xolat umurtqa va bo'yin egilishi, to'g'ri vertikal xoltda bo'ladi.

Tanani to'g'ri tutish, kishi tanasini nazoratda ushlay olishi kerak. Bu esa bor – bora odatiy xolga aylanadi. Ideal xolatda tanani saqlash oson emas, lekin shunga intilish va tanani shunga o'rgatish kerak. Bu xolat muskullar toliqishi emas, balki, psixologik fiksatsiyaga ta'sir etadi. Ba'zi ko'rinishdagi xarakatlar xam zararlidir.. Bu esa tana bug'inlariga, muskullariga zarar etkazadi.

Sichqoncha va klaviatura esa (asosan) yordamida RS tendo va git foydalanuvchilari barmoqlar orqali ishlaydilar.

Foydalanuvchilar uzoq vaqt chekilgan tutun dim xonada ishlashlari xam zaralidir. Bu vaziyat nafaqat foydalanuvchi balki texnikaga xam zarar etkazish mumkin.

Komp'yuter bilan ishlaganda zarar etkazuvchi xolatlar spetsifikatsiyasi fakti o'tkir nurli yorug'lik ta'siri, elektromagnit ta'siri va boshqa nurlanishlar kiradi. Zararlanishlarga qarshi kurashish mobaynida oddiy tavsiyalar beriladi:

- xar 1 soat mobaynida tanaffus qilish
- turib yurish
- chekuvchilar esa boshqa joyda chekishi

- chekish texnikaga xam ziyon
- qo'shimcha qilib foydali mashqlar bajarilishi kerak
- ko'zlarga aloxida e'tibor berish kerak

Komp'yuter xonalari oddiy, keng, yorug' va shinam bo'lishi kerak. Komp'yuter xonalarining oynasiga asosan jalyuza pardalari tutilgani ma'qul. Xona gigienik qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak, chunki chang texnikaga xam ta'sir etadi. Komp'yuter xonalarda chang bo'lishi va xonalarnig dim bo'lishi texnikaga zara etkazadi. SHuning uchun bu xonalarda konditsionerlar bo'lgani ma'qul.

Komp'yuter foydalanuvchilari kiyimlariga xam e'tibor berishlari va xonaga to'shaladigan to'shamalar sintetik matodan emas balki, tabiiy matodan bo'lishi kerak. Agar sintetik matolar ishlatilsa, ular orasida elektr zaryad paydo bo'ladi. Bu esa texnikaga zara etkazadi va uni ishdan chiqaradi.

Komp'yuterning elektr toki bilan ta'minlanishi esa bunga bog'liq emas.

Komp'yuter uchun stol tanlash va uni joylashtirish.

Tanlangan stol iloji boricha kattaroq bo'lishi kerak. Bu shartnig bajarilmasligi ergonomikani unutib qo'yishga olib keladi. Stol balandligi foydalanuvchi o'tirganda uning qorin qismiga to'g'ri kelishi kerak. Komp'yuter bilan foydanuvchi orasidagi masofa 50 sm bo'lishi kerak. Stolning kengligi unga qo'yiladigan qurilmalar soni va kengligiga bog'liq. Komp'yuter stoli baquvvat va qimirlamaydigan bo'lishi zarur. Klaviaturadan foydalanganda qo'llar qulay joylashishi, qo'yilgan stol va devor orasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Bu masofa qoldirish ergonomikaga kirmaydi. Bu masofada kabel va sistema bloklari joylashadi. Komp'yuter iloji boricha eshikka teskari, oldindan esa jalyuza parda bilan to'silgan oyna bo'lgani ma'qul. Stolni xam shunday joylashtirish kerakki, u o'ziga qulay bo'lishi kerak. Bu umurtqaga ziyon etkazmaslikning oldini oladi. Bir xil xolatda uzoq o'tirish zarar. Ishdan xech narsa chalg'itmasligi, xech narsa sog'liqqa zarar etkazmasligi kerak.

XULOSA

Asrimizni globalashtirish va axborotlashtirish asri deb yuritilmoqda. Darhaqiqat har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini axborot texnologiyalarisiz, ayniqsa komp'yuterlarsiz tasavvur etish mushkul. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi inson faoliyatining yuqori sur'atlarda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan alohida sohalaridan hisoblanadi. Elektron hisoblash mashinalarining birinchi avlodidan ikkinchi avlodiga o'tish davri yillar bilan o'lchangan bo'lsa, endilikda bir necha oylar davomida ularning Yangi avlodlari, turlari yaratilmoqda. Hozir shunday davr keldiki, komp'yuterlar o'zining yangi avlodlarini yaratishda va loyihalashda o'zi ham bevosita ishtirok etib, ushbu taraqqiyot jarayonida muhim omil bo'lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartirdi. Bugungi kunning o'qituvchisi–kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalari, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir. Zamonaviy o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida dars mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o'quv materiallari shunday taqdim etilishi kerakki, u talabaning vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin.

Shundan kelib chiqib bitiruv malakaviy ishda men kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish deb oldim. Hamda keltirilgan ma'lumlardan kelib chiqqan holda quyidagi hulosani bildiraman.

BMIning kirish qismida «Komp'terlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmon, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», kasb-hunar kollejlari ta'limi xujjatlari haqida so'z yuritdim. Tadqiqot ob'ekti etib kasb-hunar kolleji o'quvchilariga ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishning metodik asosini yaratishni tanladim. Kasb-hunar kolleji o'quvchilariga ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan

foydalanib dars o'tishning yo'llari, shakli, metod va vositalarini yaratish tadqiqot predmeti. Muammoni ilmiy farazini isbotlashga tarixiy xronologik taxlil, ta'lim xujjatlarini o'rganish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov metodlarini tanladim. Tadqiqotning metodologik asosi etib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hukumati, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid me'yoriy xujjatlar, «Komp'terlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmon, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», kasb-hunar kollejlari ta'limi xujjatlari olindi. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan o'qitish uslublari aniqlash, kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirish asoslash, kasb-hunar kollejlari o'quv mashg'ulotlarini ko'ramali qurollar orqali didaktik konstruksiyalash usullari o'rganib pedagogik ekspertiza qilish tadqiqotning ilmiy ahamiyatidir. Kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'ramali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish usullari nazariy taxlil qilish, kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'ragzmalilik printsipidan foydalanishning didaktik xususiyatlari va vazifalari o'rganish, kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'ramali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda KHK nizomi, DTSga asoslanilsa va seminarlar-treninglar tashkil qilishda, fanlar bo'yicha ko'ramali qurollarning dars namunalari yaratishda, o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirishda foydalanish tadqiqotning amaliy ahamiyatida yoritildi. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilardir; BMIda yoritilgan kasb hunar kollejlari ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirish printsipi, telekommunikatsion texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va vazifalari, o'qitishga og'zaki - ko'ragzmalilik, texnologik va izlanuvchan-ijodiy yondoshish, mashg'ulotlarni ko'ramali qurollar orqali didaktik konstruksiyalash usullari va o'qitishga texnologik yondashish kabi ma'lumotlardan, xulosalardan o'qituvchilar o'quv jarayonida, talabalar topshiriqlarni bajarishda foydalanishlari mumkin.

I-bob kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirish deb nomlanib, bibirchi paragrafda kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'razmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish usullari ko'rgazmalilik tushunchasi, yangi komp'yuter axborot texnologiya o'qitilishi va ko'rgazmalilik uslubi, tasvirlar soni va turlari, tasvirli ko'rgazmalilik, shartli-chizmalı ko'rgazmalilik, predmetli ko'rsatmalilik, «Sun'iy faoliyat» jadvali, ustun va qatorlar soni turlichalar, jadvallar turlari, doirali jadvallar, dinamik, blok-sxema, sxemalarning turlari, animatsiya (dinamik tasvir), animatsiyaning tezlikda uzatishi, animatsiya usullari, elektron darslik uchun tasvir tayyorlash, o'quv matnlarda sxema va jadvallar ishlatilishi, ikkinchi paragraf kasb hunar kollejlarida ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati deb atalib, bu paragrafda vizuallashtirish, uning qulayliklari, vositalari, turlari, induktsiya va deduktsiya usuli, analiz va sintez usullari haqida ma'lumot berildi.

II-bob kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmalilik printsiptan foydalanishning didaktik xususiyatlari va vazifalari deb nomlanib, bibirchi paragrafda o'quv materialini bayon etishda didaktikaning eng muhim printsiplari, ko'rgazmalilik printsipti, ko'rsatma qo'llanmalar, o'quv jarayonida tasviriy ko'rsatma qo'llanmalari, o'qitishning texnika vositalari, xonalarni o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlash, ishida asosiy texnikaviy-pedagogik talablar, o'quv kinosi, fil'm bilan ishlash, diafil'm va diapozitivlar, subtitrlar, mustaqil o'rganish, o'quvchilarning kitob bilan ishlashi, darslarda spravochnik adabiyotdan foydalanish, ikkinchi paragraf Ta'lim tizimida telekommunikatsion texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va vazifalari deb atalib, bu paragraf hozirgi davrda axborot — jamiyat rivojlanishining asosiy vositasi ekanligi, didaktika predmeti, pedagogika uchun olgan grammofon, magnitofon, televizor, videomagnitofon, komp'yuter kabi texnik vositalar, pedagoglarning o'quv vositalari, o'qish jarayonida telekommunikatsiya vositalari, internetdan foydalash, internetning didaktik xususiyatlari, ta'lim texnologiyasi jarayonida o'quvchilarning

reflektor tafakkuri shakllanish, V.P.Bespal'ko g'oyasi, «Didaktik vositalar majmuasi» haqida so'z yuritilgan.

III-bob kasb-hunar kollejlarda o'qitishga ko'rgazmali-ijodiy yondoshish usullari va o'qitishga texnologik yondashish deb nomlanib, birinchi paragrafda maktab pedagoglari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy maktab professor-o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik texnologiyani o'zlashtirish, og'zaki - ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy yondoshuvlar, K.G.Markvardt, V.Guzeevlarning fikrlari, ta'limda og'zaki - ko'rgazmali yondashuv, I.P.Podlasiy, M.V.Klarin V.I.Orlovlarning ta'kidlari, ta'limga yondashuvning qiyosiy tavsifnomasi, ikkinchi paragraf mashg'ulotlarni ko'rgazmali qurollar orqali didaktik konstruksiyalash usullari va o'qitishga texnologik yondashish deb atalib bu paragrafda aniq o'qitish tizimi, individual yozma-ko'rsatmali o'qitish tizimi, o'quv maqsadlariga erishishning me'yori, o'qitishning individual-brigada tizimi, mashg'ulotlarni didaktik konstruksiyalash usullari, «Tafakkurni modellash», rollarga bo'lib ijro etiladigan o'yinlar, imitatsion-rollarga bo'lib modellash, tutashtiriluvchi chiziqlar usuli haqida so'z yuritilgan. Va nixoyat o' oldimga qo'ygan tadqiqotning kasb-hunar kollej ta'lim tizimida vizuallashtirishdan foydalanish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga erishilsa, kasb-hunar kollejlarda o'qitishga ko'rgazmali-ijodiy yondoshish usullaridan foydalanib dars o'tilsa, kasb-hunar kollej o'quvchilarini tayyorlashda ko'rgazmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda DTS asoslanilsa va seminarlar-treninglar tashkil qilinsa, fanlar bo'yicha ko'rgazmali qurollarning dars namunalari yaratilsa, kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimida ko'rgazmali qurollar va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik sistemasini yaratish imkoni paydo bo'ladi deb olingan ilmiy farazi o'z isbotini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sharq, 1998.
2. Karimov I.A.- O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T.; O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy salohiyatlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. "O'zbekiston" 1995 y.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. "O'zbekiston" 1999y.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori "Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida", 2002 yil 30 may.
6. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish Kontsepsiyasi, T.; 2000.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O'zbekiston 1999 yil.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. O'zbekiston 1999 yil.
9. G'ulomov S.S. va boshqalar. Iqtisodiy informatika. Toshkent, «O'zbekiston», 1999 yil.
10. G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent, «O'zbekiston», 2000 yil.
11. Maraximov A.R., Raxmonqulova S.I. Internet va undan foydalanish. Toshkent, 2001.
12. Figurnov V.E. IBM RS dlya polpzoatelya. Moskva. Infra-M, 1995 god.
13. G.A. Evseev i dr. Vi kupili komp'yuter. Moskva. 1998 G.A. Evseev i dr. Vi kupili komp'yuter. Moskva. 1998.
14. A.D. Xamonenko «Osnovi sovremennix komp'yuternix texnologiy». Sankt-Peterburg, 1998.

15. G.Demirchoglaning “Ko’z Salomatligi maktabi” Sp. “Komplekt”, 1996-262 bet (Shifobaxsh kuchlar seriyasidan)
16. Barsukov V. S. Bezopasnost’: texnologii, sredstva, uslugi. – M.:KUDITS-OBRAZ, 2001. – 496 s.;
- 17.Miloslavskaya N.G., Tolstoy A.I. Intraseti: dostup v Internet, zashita: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M.: YUNITI-DANA, 2000. - 527 s.;
18. Avrin S. Bezopasnost’ informatsii v ABS // Bankovskie texnologii № 6, 1998.
19. Volodin A. Zashishennost’ informatsii // Bankovskie texnologii № 5, 1998.
20. Kuznetsov A., Trifalencov I. Chem izmeryat’ zashishennost’ informatsionnix sistem // Bankovskie texnologii №8, 1999.
21. B.A.Braydo «Ofis texnikasi, boshkarish va ish yuritish uchun» Toshkent 2001 yil.

INTERNET RESURSLARI

1. <http://mediamatch.derby.ac.ru>
2. <http://de.ifmo.ru/>
3. www.medlincs.ru
4. www.eyecenter.com
5. www.km.ru
6. www.Narod.ru

ILOVALAR

I-ilova

Shaxsiy maxorat	Umumiy texnologiya
1. Jarayon boshidan oxirigacha xodim tomonidan bajariladi	1. Jarayon bulaklarga ajratiladi, Xar bir xodim uz bulagini bajaradi
2. Jarayonga boglik barcha bilim va iker-chikirlarni bilish zarur	2. Fakat ueiga birkirilgan jarayon kismini bilishi zaru'r
3. Barcha ishni uzi bajarishi zarur	3. Barcha ishni qilishni inkor etuvchi "tayyor" ishlanmalar tadbik etiladi
4. Jaraen davomli (<i>uzoq</i>)	4. Jarayon bir muncha tezlashadi
5. Maxsulot sifatli	5. 'Maxsulotning sifati kam emas
6. Ichki tuygu, sezgi va tajribaga asoslanadi	6. Ilmiy asoslangan xisob va bilim
7. Maxsulot ishlab chikkaruvchi imkoniyat-lari bilai cheklanadi	7. Maxsulot ayrim ishlab chikaruvchilarning imkoniyati bilan

II-ilova

Ta'limga yondashuvning kiyosiy tavsifnomasi

Tushuntiruv-namoyish (an'anaviy)	Texnologik	Izlanuvchan
O'qituvchining talabaga ma'lumot berishi . Anik bulmagan o'quv maqsadlari Tayyor bilimlarni bayon qilish Suhbat va xikoya-ta'lim berishning ustuvor tashqiliy shakllari Tasvirchilik va ma'lum darajada kotib kolganlik Bilimlarni majburiy tarzda esda saklab kolish Axborotni xotirada saklab qolish, musta'kamlash va to'plashga doimo undash Bilish bosqichlarini bir butun tizimiga etarlicha bog'lanmagan fanlar tashqil etadi Mashg'ulotlar (asosan) akademik xarakterga ega va mutaxassislarning bo'lg'usi faoliyati bilan etarlicha bog'liq emas	Tizimli yondashuvdan foydaplangan xolda o'quv jarayonini loyixalash Ko'zlangan andozaga ko'ra ta'lim oluvchining kuzatilishi mumkin bo'lgan xarakterlarining jamlamasi kurinishida o'quv maqsadlarini mumkin qadar aniqlashtirish Ta'lim olquvchilarning xatti-xarakterlari orqali o'qitish Ta'lim oluvchilar bilan aloqa bog'lash yordamida ta'lim jarayoniga tuzatish-lar kiritish. Shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi baholar Mezonli nazorat (test o'tkazish) Bilim va ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirish Rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish Ta'limning samaradorligi	Muammolarni echish O'quv tadqiqoti Predmetlararo aloqa Farazlarni olg'a surish va tekshirish Ma'lumot to'plash Modellashtirish, sinov tajriba (eksperiment) Refleksiv, tanqidiy, ijodiy tafakkur Ko'p mezonlik, asoslanganlik Xulosa chiqarish Rolp bajarish SHaxsiy ma'no topishga intilish Xulq-atvor, ma'naviyat, ijtimoiy mas'uliyat, tafakkurni yuksaltiruvchi yangiliklarga nisbatan xozirjavoblik